

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UDK: 9:371.3

MAMATQULOV SHUXRAT RASULBERDIYEVICH

**XI-XII ASRLARDA O'RTA OSIYO SIYOSIY HAYOTI
TARIXINING TARIXSHUNOSLIGI**

Mutaxassislik: 5A 120 304 – **Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy metodlari**
bo'yicha magistr akademik darajasini olish uchun

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
_____ dots. Ergashev B.E.

Samarqand – 2014

XI-XII ASRLARDA O'RTA OSIYO SIYOSIY HAYOTI TARIXINING TARIXSHUNOSLIGI

Kirish:.....4-11 betlar

1 Bob XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixiga oid manbalar...12-bet

1. 1 §. O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayotida sodir bo'lgan muhim voqealar bayoni.....12-21 betlar

1. 2 §. O'rta Osiyoning XI asr siyosiy hayoti tarixiga oid manbalar.....22-31 betlar

1. 3 §. O'rta Osiyoning XII asr siyosiy hayoti tarixiga oid manbalar.....32-42 betlar

2 Bob Chor Rossiyasi va Sho'rolar davrida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixining o'rganilishi.....43-bet

2. 1 §. XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixining o'rganilishi.....43-46 betlar

2. 2 §. V. V. Bartold ijodida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixining o'rganilishi.....47-54 betlar

2. 3 §. Sho'rolar davrida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixining o'rganilishi.....55-61 betlar

3 Bob Mustaqil O'zbekistonda va Xorijiy mamlakatlarida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixining o'rganilishi.....62-bet

3. 1 §. Mustaqil O'zbekistonda O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixining o'rganilishi.....62-65 betlar

3. 2 §. Xorijiy mamlakatlarida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixnavisligi.....66-73 betlar

Xulosa.....74-77 betlar

Adabiyotlar ro'yxati.....78-83 betlar

Kirish

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng tariximizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Zero o'z o'tmishini yaxshi bilgan undan to'g'ri xulosalar chiqargan xalqgina kelajak sari xotirjam qadam tashlay oladi. Mustaqillik yillarida tariximizga bo'lgan e'tibor hukumat darajasigacha ko'tarildi desak aslo xato bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 – yil 27 iyuldagi “O'z FA tarix instituti faoliyatini takomillashtirish haqidagi” qarori¹dan so'ng haqqoniy tarixni yaratish, bu jarayonda birlamchi manbalarga asosiy e'tibor berish, qo'yilgan muammolarni soha mutaxassisleri tomonidan hal etilishi, mavjud muammolar yechimini ilmiy asoslash borasida anchagina ishlar amalga oshirildi.

Respublikamiz prezidenti I. A. Karimov O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab vatanimiz tarixini qaytadan tiklash ishlariga shaxsan bosh-qosh bo'lib kelmoqdalar. Bu borada prezidentimiz I. A. Karimovning 1998 – yilda bir guruh tarixchi – olimlar bilan qilgan suhbatida tarixchi-olimlarimiz oldiga bir qator ilmiy-nazariy va amaliy dolzarb muammolarni hal etish vazifasini qo'ygan edi.². Bu uchrashuvdan keyin tarixchi – olimlarning mas'uliyatlari yanada oshdi.

Ushbu magistrlik ishida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixining tarixshunosligi yoritib beriladi.

Mavzuning dolzarbligi: O'rta Osiyo tarixini, jumladan XI-XII asrlar tarixini o'rganish turli davrlarda ayniqsa, XIX asr ikkinchi yarmidan rus tarixchilari, keyin Sho'ro davri tarixchilari tomonidan amalga oshirilib borildi. Lekin bu davrlarda ayniqsa sho'ro davrida tarixni bir tomonlama sinfiylik nuqtai-nazaridan yoritish avj oldi. XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy tarixini qanday g'oya, mafkura, usullar vasitasida yoritilganligini tahlil etish va tatqiq etish tarixshunoslik fani uchun juda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari mustaqil O'zbekistonda va xorij mamlakatlarda ushbu davrni yoritishdagi yutuq va kamchiliklarni tatqiq etish ham muhimdir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 315-son, 27.07.1998-yil.

² I. A. Karimov. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”. T. , Sharq. 1998. 9-bet.

Mavzuning maqsadi va vazifalari: Ushbu disertatsiya ishining maqsadi XI-XII asrlarda O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixining tarixshunosligini tarixshunoslik fanining eng samarali va so'ngi usullari yordamida ochib berish, bu davr siyosiy hayotiga nisbatan turli davrlarda yashab ijod qilgan tarixchilar ya'ni, XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi tarixchilar-olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar, XX asr 20-yillaridan shu asrning 80-yillari oxirlarigacha qilingan tadqiqotlar, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlar, shuningdek, XIX asr oxirlaridan xorij mamlakatlarida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar ular tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalarini tatqiq etish va tahlil etish va shu orqali tarixshunoslik fanining yanada rivojlanishiga hissa qo'shishdan iboratdir. XI-XII asrlarda O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixining tarixshunosligini yoritib berishda biroz e'tibordan chetda qolgan muammolarni topish va uni tarixchilar e'tiboriga havola etish ishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Mavzuning vazifalari O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayotini turli tuzum va jamiyatlarda qanday nuqtai-nazardan yoritilganligini o'rganish, turli g'oya va mafkuralarning tarix fani taraqqiyotiga ijobiy va salbiy ta'sirini o'rganish, XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixini yoritish ishlariga eng muhim darajada hissa qo'shgan olimlarning tadqiqot ishlarini tahlil qilishdan iboratdir.

Mavzuning tarixshunosligi: O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixi ustida eng muhim tadqiqot ishlarini olib borgan olimlar qatoriga V. V. Grigorev¹, V. V. Bartold², turkmanistonlik tarixchi S. G. Agajanov³, Ye. A.

¹ В. В. Григорьев. "Караханиды в Мавераннахре по Тарихи Мунаджимбаши в османском тексте" // ТВОРАО. – СПб., 1874.

² В.В.Бартольд. "Туркестан в эпоху монгольского нашествия". Соч. т. I. Изд. "Восточной литературы", М, 1963.; shu muallif: В. В. Бартольд, "Работы по истории востоковедения". Соч. т. IX. Изд. "Наука", М, 1977.; shu muallif: В.В.Бартольд. "Общие работы по истории Средней Азии". Соч. т. II. ч. 1. Изд. "Восточной литературы", М, 1963. shu muallif: В. В. Бартольд. "Тюрки; Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии". Алматы, Изд. "Жалын". 1998. shu muallif: В. В. Бартольд, "Работы по источниковедению". Соч. т. VIII. Изд. "Наука", М, 1973.

³ С.Г.Агаджанов. "Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии в IX-XIII вв". Ашхабад, Изд. "ЫЛЫМ", 1969.; shu muallif: "Сельджукиды и Туркмения в XI-XII вв.". Ашхабад, Изд. "ЫЛЫМ". 1973.; shu muallif: "Восстание огузов 1156 г. и падение Восточно-Сельджукского государства". Ашхабад, 1956.

Davidovich¹, B. D. Kochnyev², qirg'izistonlik tarixchi O'. Q. Qoraev³, ozarbayjon tarixchisi Z. M. Bunyodov⁴, M. N. Fyodorov⁵, K. Kaen⁶, O. Pritsak⁷, T. Rays⁸, K. K. E. Bosvort⁹, turkiyalik tarixchilar E. Merkil¹⁰, U. S. Hunkan¹¹, M. A. Koymen¹², Koymen¹², I. Kafesoglu, O. Turan¹³, A. Sevim, H. N. Orkun, tojikistonlik tarixchilardan N. B. Najotova¹⁴

¹ Давидович Е.А. “Нумизматические материалы для хронологии и генеалогии среднеазиатских Караханидов”// Труды ГИМ. Вып. XXVI. М. 1957.; shu muallif; “О двух караханидских каганатах”// Народы Азии и Африки. №1. 1968. o'sha muallif; “Клад саганианских монет второй четверти XI в. как исторический источник”// ППВ-1968. М. 1970.

² Б.Д.Кочнев. Нумизматическая история Караханидского каганата (991-1209 гг.). Часть I. М. «София», 2006. shu muallif: “К истории денежного обращения в Средней Азии в XI-XII вв”. // ИМКУ. Вып. 12. Ташкент. С.170-175. 1975. shu muallif: Находки монет конца X — начала XIII вв. на Афрасиабе”// Там же. С. 69-76. 1975. shu muallif: “Заметки по средневековой нумизматике Средней Азии”. Часть I (Саманиды, Караханиды, Джаниды) // ИМКУ. Вып. 14. Ташкент. С. 120-131. 1978.

³ Караев О.К. “История Караханидского каганата (X-нач.XIII вв)”. – Ф.,1983. shu muallif; “Арабские и персидские источники IX-XII вв.о киргизах и Киргизии”. – Ф.,1968.

⁴ Буниятов З.М. “Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов”.(1097-1231) . М. 1986. Садр-ад-дин Али ал-Хусайни. Ахбар ад-даулат ас-селджукиййа (зубдат ат-таварих) фи ахбор ал-умара ва-л мулук ас-селджукиййа). Издание текста, перевод, введение, примечания и приложения З.М. Буниятова. М., 1980. “Гарс ан-Ни'ма ас-Саби и Камал ад-дин ибн Фувати об истории Караханидов”// ППВ-1974. М. 1981.

⁵ Федоров М.Н. “Редкий караханидский дирхам из Афрасиаба”// С А. 1972. №3. shu muallif: “Политическая история Караханидов в конце X — начале XI в”. // НЭ. Т. X. М. 1972. shu muallif: “Политическая история Караханидов в конце первой и во второй четверти XI в”. // НЭ. Т. XI. М. 1974. shu muallif: “К вопросу об исторических судьбах дикханов при Караханидах”// СА. 1975. №1.

⁶ C. Cahen. “The historiography of the Saljuqid period. HME. London, 1962.

⁷ O.Pritsak. “Karachanidi sene streifragen // Oreins. 1950. Vol. 3. - №2.

⁸ T. T. Rice. “The Seljuks in Asia Manor”. London. 1961.

⁹ К. Э. Босворт. “Мусулманские династии”. Москва. Изд. “Наука”. 1971.

¹⁰ E. Mercil. “Gazneviler Devleti tarihi”. Ankara, 2007.; yana o'zi; “Kirman seljuklulari”. Ankara, 1989.; yana o'zi; “Seljuklularda hukumdarlik alametleri”. Ankara, 2007.

¹¹ Omer Soner Hunkan. “Turk hakanligi”. Istambul, 2007.

¹² M. A. Koymen. “Buyuk Seljuklu imparatorlugu tarihi”. 1. Kuruluj devri. Ankara,2000.; shu muallif: “Buyuk Seljuklu imparatorlugu tarihi. III. Alp Arslan ve zamai. Ankara, 2001.

¹³ O. Turan. “Turkiye Seljuklulari hakkında resmi Vesikalar”. Ankara, 1958.; shu muallif: “Seljuklular Tarihi ve Turk-islam medeniyeti”. Ankara, 1965.

¹⁴ Н. Б. Нажотова. . “Газневидо-селджукидские отношения в XI-XII вв”. Автореферат. диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. ТАДЖ.Н У. Душанбе. 2011. Отражение истории Газневидов и Сельджукидов в произведении «История Мас'уда» //Вестник Таджикского национального университета (научный журнал). – Душанбе: Сино, 2009. -№ 3 (51). – С.10-13.;

Ali Mahmudiy A'lamiy¹, S. K. Mullajonov², o'zbekiston tarixchi B. H. Mahmudov³ kabi tarixchilarni kiritishimiz mumkin.

Tadqiqot ob'ekti: Tadqiqot ob'ektiga O'rta Osiyoning XI-XII asrlar davri siyosiy hayotini aks ettirib bergan barcha birinchi darajali manbalar hamda ushbu davrda yashagan tarixchilarning voqea – hodisaga yondoshuvlari, O'rta Osiyoning XI-XII asrlar davri siyosiy hayoti tarixiga oid Chor Rossiyasi davrida, Sho'rolar davrida, mustaqil O'zbekistonda hamda xorijiy mamlakatlarda olib borilgan barcha tadqiqot ishlari.

Tadqiqotning nazariy – metodologik asosi: Mavzu tadqiqotini olib borish jarayonida tarixiy voqea-hodisaga ob'ektivlik, tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintezlash, xronologik, milliylik hamda umuminsoniylik tamoyillari, milliy istiqlol g'oyasiga tayanshga alohida e'tibor berildi. Shuningdek, prezidentimiz I. A. Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” hamda “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch” kabi asarlari, O'zbekistonda tarix fani oldida turgan dolzarb muammo va vazifalar haqidagi xulosa va tavsiyalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institute faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi 1998-yil 27-iyuldagi qarorlari, o'zbekistonlik, O'rta Osiyo hamda xorij mamlakatlari tarixchilari tadqiqotlaridagi g'oya va fikrlardan, xulosalardan nazariy-uslubiy jihatdan foydalanildi.

¹ A. M. Аълабий. “Взаимоотношения Ирана и Хорасана в XI-XII вв”. Автореферат. диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Душанбе. 2011.

² С. К. Мулладжонов. “Тарихи Маъсуди Абул Фазл Байхаки о государственных традициях таджиков” // Материалы международной научной конференции студентов. Ашхабат. 2001.; shu muallif: “Тарихи Маъсуди” Абулфазла Байхаки как источник по изучению государственного устройство Газнавидов. (Автореферат. дис. кан.ист. наук). Душанбе.2000.

³ B. H. Mahmudov. “Qoraxoniylar davlatchilik tizimining xususiyatlari”. Avtoreferat. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyadan. O'zMU. Toshkent. 2010. shu muallif; “Qoraxoniylar davlati” // O'zMil Ens. – T. “Davlat ilmiy nashriyoti”.2005. – 11-jild. – 84-85.; shu muallif; “Qoraxoniylar davlatchilik tarixiga oid ayrim mulohazalar” // GulDU axborotnomasi. –Guliston, 2007. -№ 3-4.- B. 77-80.; shu muallif; “Qoraxoniylar davlati boshqaruv tizimi haqida”. // O'zbekistonda Ijtimoiy Fanlar. – Toshkent, 2009. - №1. – B. 67-74.

Tadqiqotning yangilik darajasi: XI-XII asrlar O'rta Osiyoning siyosiy hayoti tarixchilar, sharqshunoslar tomonidan o'rganib kelindi, lekin bu davr tarixshunosligi yetarli darajada yoritilmagan. Bu davr tarixi tarixshunosligi tarixshunoslik adabiyotlarida juda kam va sayoz yoritilganligini ko'rishimiz mumkin. Shuni ham ta'kidlash kerakki yurtimizda tarixshunoslik fanining echilmagan muammolari ham mavjuddir. Ushbu tadqiqot orqali ayrim muammoli jihatlarni topildi. Jumladan, sho'rolar davrida hamda mustaqillik yillarida O'zbekistonda XI-XII asrlar O'rta Osiyo tarixiga maxsus tadqiqotlar juda kam darajada olib borilgan.

Mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati: Ishning nazariy ahamiyati shundan iboratki XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixining tarixshunosligini yoritib berish orqali qo'lga kiritilgan yutuqlar hamda tajribalar O'rta Osiyo xalqlarining rivojlangan o'rta asrlar davri siyosiy hayoti tarixining turli davrlarda qay darajada o'rganilganligini tadqiq etish orqali yurtimizda tarixshunoslik fanining rivojlanishiga oz bo'lsada hissa qo'shishdan iboratdir. Dissertatsiya mavzusi tadqiqoti natijasida qo'lga kiritilgan yutuqlar tarixshunoslik fanining keyingi tadqiqotlarida muhim nazariy ahamiyatga egadir. Amaliy ahamiyati shundaki qo'lga kiritilgan yutuqlardan oliy o'quv yurtlarida ijtimoiy fanlarni o'qitishda xususan, yurtimiz oliy o'quv yurtlarining tarix fakultetlari manbashunoslik va tarixshunoslik yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar o'z ma'ruzalarida, uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda, magistr va talabalar esa rivojlangan o'rta asrlar davri O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixini o'rganayotganda ushbu tadqiqot natijalaridan foydalanishlari mumkin. Shuningdek akademik litseylarning tarix faniga ixtisoslashgan guruh talabalari, tarix fani o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Mavzuning ishlab chiqarishga bog'liqligi: Dissertatsiya tadqiqoti natijasini pespublikamizdagi kollej va litsey tarixchi o'qituvchilarining o'quv-metodik faoliyatiga joriy etish, tarix muzeylari, sayyohlik tashkilotlari faoliyatiga tadbiq etish tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning tuzilishi: Tadqiqot kirish, uch bob, sakkizta paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixini o'rganishda birinchi darajali manbalarning o'rni va ahamiyati eng muhim hisoblanadi. Asl tarixiy qo'lyozmalarni o'qish, o'rganish, taqqoslash, taxlil qila olish manbashunos – tadqiqotchilardan katta mahoratni talab qiladi. O'rta asrlar davri tarixini yoritishda eng ishonchli vosita bu – asl tarixiy qo'lyozma manbalardir. XI-XII asrlar O'rta Osiyo tarixiga oid manbalarni tadqiq etish alohida e'tiborni taqozo etadi. Chunki, bir manbada ta'kidlangan fikr boshqa manbada ham takrorlanishi mumkin. Bu davr manbalarining ko'pchiligida voqea-hodisalar xronologik tarzda bayon etiladi. O'rta Osiyo tarixining XI-XII asrlar birinchi darjali manbalariga Abulfazl al-Bayhaqiyning “Tarixi Mas’udiy”, Abu Nasr Muhammad al-Utbiyning “Tarixi Yaminiy”, Abu Sa’id Abdulhay Gardiziyning “Zayn ul-axbor”, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Izzuddin ibn al-Asirning “Al-Kamil fi-t-ta’rix”, Sadriddin al-Husayniyning “Axbor ad-daulat as-Saljuqiyya”, Imodiddin Muhammad ibn Muhammad al-Isfaxoniyning “Nusrat al-fatra va usrat al-fitra”, Abu Sa’d Abdulkarim as-Sam’oniyning “Kitob al-ansob” va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

XIX asr o'rtalaridan boshlab Rossiya va G'arbiy Evropalik sharqshunos olimlar O'rta Osiyoning o'rta asrlar davri tarixi bilan bog'liq qo'lyozma asarlarni o'rganishga bel bog'ladilar. Ular qatoriga V. V. Grigorev, V. V. Radlov, N. Veselovskiy, V. V. Bartold, V. R. Rozen, V. P. Vasilev, X. Vamberi, B. Dorn va boshqalarni qo'shishimiz mumkin. Ushbu nomlari yuqorida ta'kidlab o'tilgan mualliflarning barchasi O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixini dastlabki ilmiy asosda tadqiq etish ishlariga munosib tarzda hissa qo'shdilar. Bu tadqiqotchilar barchasi sharq tillarini yaxshi bilgan hamda ular asosan birinchi darajali manbalar ustida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borganlar. Ularning ko'pchiligi O'rta Osiyoning XI-XII asrlar davri tarixiga oid ayrim manbalarni birinchilardan bo'lib tadqiq etganlardir.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyo xalqlari tarixini ilmiy asosda o'rganish ishlari boshlab yuborildi. Jumladan, O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixini ilmiy asosda o'rganish ham huddi shu davrdan boshlangan. Bu davrda dastlabkilardan bo'lib Chor Rossiyasi tarixchilari ancha faollik bilan tadqiqot ishlarini boshlab yubordilar. Bu qiziqishning Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati bilan ham bog'liq tomoni bor edi albatta. Lekin shunday bo'lsada O'rta Osiyo xalqlari tarixini ilmiy asoslarda o'rganilishining boshlanishi keyingi tadqiqot ishlarida katta ahamiyatga ega bo'ldi. XIX asr o'rtalaridan sharqshunoslik fanining rivojlana boshlashi ham O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixining o'rganila boshlashida muhim bo'ldi.

Rossiyaning 1917-yilgi oktabr voqealaridan keyin hayotning barcha sohalarida yagona kommunistik mafkuraning uvtivorligi o'rnatildi. Kommunistik mafkura ta'siridan ilm-fan sohasi shu jumladan, tarix fani sohasi ham bundan mustasno emas edi. Tarixiy voqea-hodisani sinfiylik nuqtai-nazaridan yoritish, tarixiy tadqiqot jarayonini faqatgina materialistik dunyoqarash bilan olib borish, markscha-lenincha g'oyalarga sodiq bo'lish Sho'rolar davri tarixshunosligiga xos hususiyatlar edi. Ushbu hususiyatlar Sho'rolar davri tarixshunosligiga, bu davr tarixchilarining tarixni ob'ektiv, haqqoniy tarzda, erkin dunyoqarash bilan o'rganishlariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Lekin shunday bo'lsada Sho'rolar davrida bir-qator buyuk tarixchilar yetishib chiqdi va ular tomonidan amalgam oshirilgan tadqiqotlar bugungi kunda ham o'z ahamiyati va qadrini yo'qotgan emas. Xususan, Sho'rolar davrida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixiga oid samarali tadqiqotlar olib borgan bir-qator iqtidorli tarixchi – olimlar faoliyat ko'rsatishdi. Mana shunday tarixchilar qatoriga A. Yu. Yakubovskiy, Sergey Grigorevich Agajanov, Yelena Abramovna Davidovich, Boris Dmitryevich Kochnev, Qoraev Omurqul Qoraevich, Ziyo Musaevich Bunyodov, M. N. Fyodorov kabilarni qo'shishimiz mumkin.

Ushbu dissertatsiya mavzusining nomi "XI-XII asrlarda O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixining tarixshunosligi" deb nomlangan bo'lishiga qaramay ishning

birinchi bobi XI-XII asrlar O'rta Osiyo tarixiga oid manbalarning o'rganilish tarixiga bag'ishlanadi. Chunki har qanday tadqiqotchi ham biror tarixiy davrga oid tadqiqot olib borayotganda avvalo, o'sha davr manbalarini o'rganishi shartdir.

1 Bob XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixiga oid manbalar

1. 1. §. O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayotida sodir bo'lgan muhim voqealar bayoni

O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti o'zining qizg'in voqea-hodisalarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu davr siyosiy hayotda katta o'zgarishlar sodir bo'lgan, yangi-yangi sulolalarning hokimiyat tepasiga chiqqan davrdir. X asr oxirlariga kelib O'rta Osiyo hududida hukmronlik qilib kelayotgan Somoniylar davlatining inqirozga yuz tutishi Qoraxoniylar davlatining Movarounnahr hududini zabt etishlari bilan yakunlandi.

Qoraxoniylar hukmdori Nasr Eloqxonning 999 – yilda Buxoroni egallashi bilan Somoniylar hukmronligiga barham berildi. Ushbu voqea haqida Ibn al-Asirda to'liqroq ma'lumotlar uchraydi. Uning ta'kidlashicha shu yilda Somoniylar sulolasi hukmronligi Yamin ad-daula Mahmud ibn Sobuqtegin va Shams ud-daula (Davlat quyoshi) unvonini olgan Abu Nasr Ahmad ibn Ali ismli turk eloqxoni tomonidan tugatildi¹.

1005 – yilga qadar Somoniylar va Qoraxoniylar o'rtasida ko'plab urushlar bo'lib o'tdi va o'sha yili so'ngi somoniy Abu Ibrohim Ismoil Muntasirning Buxoroni ozod etishdagi harakatlari muvaffaqiyatsiz yakunlanadi va Somoniylar siyosiy tarix sahnasidan tushib ketdilar. Muntasirning o'zi esa 1005 – yilda Marv yaqinida yashovchi arab qabilasi tomonidan o'ldiriladi. Somoniylar sulolasining so'ngi vakili vafot etgach bo'lingan mamlakat Qoraxoniylar va Mahmud (G'aznaviy) tomonidan qanday boshqariladi degan savol turar edi. Mahmud o'z hokimiyatini rasman mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. U xalifa Qodirdan Xurosonni boshqarish to'g'risida yorliq bilan birga “yamin ad-daula va

¹ Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих. (Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г.Булгакова, дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камолиддин), Ташкент-Цюрих, 2005. С. 174.

amin al-milla” unvonini ham qabul qildi¹. Qoraxoniylarning Movarounnahrda hukmronligi 200 yilga yaqin davom etadi. Bu davlat bir nechta viloyatlarga bo’lingan bo’lib, Movarounnahrda dastlab Nasr Eloqxon hokimlik qilgan. Nasr Eloqxon do’stona munosabatlar o’rnatish tarafdori ekanligini bildirib qo’shnisi Mahmud G’aznaviy bilan elchilik munosabatlari o’rnatadi. Ammo, bunday munosabatlar uzoq cho’zilmadi. Mahmud G’aznaviyning shimoliy Hindistonda urush olib borayotganligidan foydalangan Eloqxon 1006 – yilda katta qo’shin bilan Amudaryodan kechib o’tib Balx, Tus, Nishopur shaharlarini bosib oladi². Biroq, G’aznaviylar Qoraxoniylarga jiddiy qarshilik ko’rsatib ularni Xuroson hududidan haydab chiqarishga erishdilar. Keyinroq yana bir bora Qoraxoniylar Xurosonga hujum qildilar. Bu vaqtda Yamin ad-davla (Mahmud G’aznaviy) Toxaristonda edi. U biroz avval, o’z askarlarini Balx shahriga to’plagan edi. Uning g’uz, halaj, hind, afg’on hamda g’aznalik askarlardan tashkil topgan qo’shini Balxda jang maydonidan ikki farsax uzoqlikda qulay joyda harbiy manzilgoh qurishdi. Mahmud G’aznaviy o’z jangovor (500 ta) fillarini Ilekxon (Nasr) qo’shining markaziga jangga tashladi³. Bu jangdan so’ng Qoraxoniylar qo’shini butunlay yakson qilindi. Shundan keyin Qoraxoniylar Xurosonga harbiy yurish uyushtirishga boshqa jur’at etmadilar.

Nasr Eloqxonning o’limidan so’ng oradan biroz vaqt o’tgach Movarounnahrda hokimiyat Qoraxoniylarning Hasaniylar sulolasiga mansub Alitegin qo’liga o’tdi. Movarounnahrni uzoq yillar boshqargan Alitegin bilan Qoraxoniylarning ulug’ xoni (tamg’achxon) Yusuf Qodirxon o’rtasida yaxshi munosabat o’rnatilgan edi. Bu munosabatning yanada kuchayib ketishidan cho’chigan Mahmud G’aznaviy Yusuf Qodirxon bilan kelishib Aliteginga qarshi ish tutdilar. Ular 1025 – yilda Movarounnahrda yurish qildilar. Alitegin

¹ В.В.Бартольд. “Туркестан в эпоху монгольского нашествия”. Соч. т. I. Изд. “Восточной литературы”, М, 1963. С. 332.

² В. Eshov. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. Т. : “Ma’rifat”. 2009. 235-bet.

³ Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих. (Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г.Булгакова, дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камолиддин), Ташкент-Цюрих, 2005. С. 180.

Zarafshonning o'ng oqimida yashayotgan ko'chmanchi turkman qabilalari va Saljuqxonning nabiralari Ismoil, To'g'ru'l va Dovudlardan yordam so'raydi. Bu jangda Qoraxoniylar mag'lubiyatga uchragan bo'lsalarda, Alitegin Movarounnahrda o'z hokimiyatini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi¹.

Movarounnahr yeriga batamom o'rnashib olganlaridan so'ng ko'p vaqt o'tmasdan, ya'ni 1015 – 1016 yillar Qoraxoniylar davlatiga mansub xonzodalar buyuk xonlik mansabini olish yo'lidagi kurashlari, ayrim o'lkalarni egallab olish niyatida olib borgan o'zaro urushlari qoraxonlar hukmrohligini birmuncha o'zlashtiradi va oxir-oqibatda davlatning bo'linib ketishiga olib keladi. 1041 – yilda Qoraxoniylar davlati ikkiga: g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'linib ketdi².

XI asr o'rtalariga kelib Xurosondagi G'aznaviylar davlati Saljuqiylar tomonidan yo'q qilindi. Movarounnahrdani esa Qoraxoniylar o'z qo'llarida saqlab qoldilar va bu yerda Ibrohim ibn Nasrning siyosiy faoliyati boshlanadi. U yangi poytaxt qilib o'ziga Samarqandni tanladi va shu yerdan turib hokimiyatni boshqardi (1040-1068). Ibrohim ibn Nasr bilan Saljuqiylar o'rtasidagi munosabat ancha yomon edi. U Saljuqiylarning bir necha hujumlarini qaytarishga erishgan. 1068 – yilda Ibrohim ibn Nasr vafotidan keyin uning o'g'illari o'rtasida taxt uchun kurash boshlanib, bu kurashda Shamsulmulk g'alaba qozonib hokimiyatni egallaydi. 1072 – yilda Saljuqiy Sulton Alp Arslonning vafotidan foydalangan qoraxoni Shamsulmulk Saljuqiylarga tegishli bo'lgan Termiz va Balx viloyatlarini egalladi. Ammo, ko'p o'tmay Alp Arslonning vorisi bo'lgan Sulton Malikshoh boshchiligida Saljuqiylar Qoraxoniylarni qaytarib yubordilar.

1080 – yilda Shamsulmulk vafot etib taxtga qoraxoni Ahmad o'tiradi. Ahmadxon davrida musulmon ulamolari va turk lashkarboshilari o'rtasidagi kurash avj olib ketadi. 1088-1089 yillarda saljuqiylar sultoni Malikshoh Movarounnahrni bosib olishga qaror qildi. Malikshoh qo'shinlari Amudaryodan kechib o'tib Buxoro tomonga yurdi va shaharni egalladi. So'ngra Qoraxoniylar davlati poytaxti

¹ B. Eshov. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. T. : “Ma’rifat”. 2009. 234-235 betlar.

² K. Sh. Shoniyozov. “O'zbek xalqining shakllanish jarayoni”. T., “Sharq”. 2001. 237-bet.

Samarqandga yurish qildi¹. Ibn al-Asir quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "482-yilda (milodiy 16.03.1089 – 5.03.1090) Sulton Malikshoh Samarqandni egalladi. Samarqandda o'sha paytda Shamsulmulkning ukasi Ahmadxon ibn Xidrxon hokimlik qilar edi. Ahmadxon esa Malikshohning rafiqasi Turkonxotin ukasining o'g'li edi"². Ahmadxon esa asir olinadi. Malikshoh Samarqand hokimi etib Abu Toxir Xorazmiyni tayinlaydi va Isfaxonga qaytib ketadi. Tez orada Malikshoh Qoraxoniylar hukmdorini (Ahmadxon) ozodlikka chiqaradi. Ehtimol, bunga rafiqasi Turkonning Qoraxoniylar urug'idan bo'lganligi sabab bo'lishi mumkin. Ahmadxon Samarqandga qaytadi va Saljuqiylarning vassali bo'lib qoldi³. Ahmadxonning Saljuqiylarga bo'ysunishi lashkarboshilar va ruhoniylarning noroziligiga sabab bo'ldi. Ahmadxon 1095 – yilda fitna uyushtirilib o'ldiriladi.

Qoraxoniylarning nomdor hukmdorlaridan yana biri Muhammad Arslonxon (1102-1130) edi. Bu xon ham xudojo'y, mamlakatni odilona boshqarishga intilgan kishi bo'lgan. Lekin uning davrida xonlar bilan ruhoniylar o'rtasida oldin boshlangan raqobat davom qilib kelgan. Samarqand shahrining raisi Ashraf Muhammad as-Samarqandiy Arslonxonga qarshi fitna uyushtiradi. Xon fitnachilarni qo'lga olib, raisni qatl etishga buyuradi. Ruhoniylarning tarafini olib kelgan saljuqiylar sultoni Sanjar qo'shin boshlab Movarounnahrda bostirib kirib Samarqandni qamal etadi. Qizig'i shundaki, ruhoniylarning katta bir qismi Sanjar nomiga maktub yozib o'z xonlarini himoya qiladilar. Ammo saljuqiylar sultoni Arslonxonni unga (Sanjarga) suiqasd uyushtirgan deb ayblab, Samarqandni zabt etadi. Kasal yotgan Arslonxon Sanjarning hukmi bilan 1130 – yilda Balx shahriga, qizining oldiga jo'natiladi. U ko'p vaqt o'tmay vafot etadi⁴. 1130 – yilda Arslonxonning o'g'li Nasr taxtga o'tiradi. Qoraxoniylar o'z mustaqilligini deyarli yo'qotib Saljuqiylarga qaram bo'lib qoldilar.

¹ В. М. Запорожец. "Сельджуки". Москва. "Воениздат". 2011. С. 136.

² Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих. (Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г.Булгакова, дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камолиддин), Ташкент-Цюрих, 2005. С. 224.

³ В. М. Запорожец. "Сельджуки... С. 137.

⁴ К. Sh. Shoniyo'zov. "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni". T., "Sharq". 2001. 301-bet.

Oradan ko'p o'tmasdan Movarounnahrda yangi ko'chmanchi qabilalar Qoraxitoylar (kidanlar) hujumi xavfi paydo bo'ldi. XII asrning 30 – yillarida Qoraxitoylar Sharqiy Turkiston va Yettisuvni bosib oldilar. G'arbiy Qoraxoniylarning ham ahvoli yaxshi emas edi. 1137 – yilda Xo'jand yaqinidagi bo'lgan jangda Qoraxitoylar qo'shini qoraxoniylar Mahmudxon qo'shinlarini tor-mor etdilar. Bu paytda Xorazmni egallash bilan band bo'lgan Sulton Sanjar o'z vassali Mahmudxonga yetarli yordam bera olmadi. Samarqand talon-taroj qilinib, katta tovon undirilgach, Qoraxitoylar orqaga qaytdilar. 1141 – yilda Qoraxitoylar yana Movarounnahr yerlariga bostirib keldilar. Ularning hujumini to'xtatish uchun Sulton Sanjar katta qo'shin bilan Samarqand yaqiniga yetib keladi. Bu safar jang Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lida bo'ldi. Hal qiluvchi bu jangda Sulton Sanjar va qoraxoniylar Mahmudxonlarning birlashgan qo'shinlari Qoraxitoylar tomonidan mag'lub etildi. Sanjarning Qatvon cho'lidagi hij. 536/1141 – yilgi katta mag'lubiyatidan so'ng butun Turkiston o'lkasiga shimoldan yo Amudaryogacha bo'lgan hududlarga shimoliy Xitoy tomondan Qoraxitoylar yoki g'arbiy Lyaolar kirib kedi¹. Endi Qoraxoniylar Qoraxitoylarga qaram bo'lib qolishdi. Lekin Qoraxitoylar bevosita davlatning ichki ishlariga aralashmaganlar.

O'rta Osiyoning XI asr tarixida G'aznaviylar davlatining ham alohida o'rni bor. Ko'pchilik tarixiy-ilmiy adabiyotlarda Mahmud G'aznaviy deb yuritilgan Abulqosim Mahmud hukmronligi davrida (998-1030) G'aznaviylarning qudrati va shuhrati ortib Buyuk G'aznaviylar davlati barpo etildi. Bog'dod xalifasi Mahmud G'aznaviy hokimiyatini tan olib unga yorliq yuborgach, Mahmud siyosiy jihatdan ancha mustahkamlanib oldi.

1017 – yilda Mahmud G'aznaviyning ittifoqchisi bo'lgan xorazmshoh Abulabbos Ma'munning o'ldirilishi va isyonchilar tomonidan taxtga Ma'munning jiyani Abulhoris Muhammad Aminning o'tqazilishi Mahmudning Xorazmga yurishiga sabab bo'lgan edi. Bu haqda V. V. Bartold batafsil ma'lumotlar keltirib o'tadi jumladan, u quyidagi fikrlarni bildiradi: Alptegin va Sayyodteginlar (Xorazm qo'shiniga boshchilik qilgan sarkardalar) asirga olinganidan so'ng

¹ К. Э. Босворт. “Мусульманские династии”. Москва. Изд. “Наука”. 1971. С. 159.

Mahmud qo'shinlari Xorazm poytaxtiga (Kat) tomon yurdi va 1017 – yil 3 – iyulda uni egalladi. Uch qo'mondon (Humortosh, Alptegin va Sayyodtegin) fillar oyog'i tagiga tashlab o'ldirildi. Mahmud Xorazmga bosh hojib etib Oltintoshni tayinlaydi¹. Oltintosh ko'p jihatdan mustaqil siyosat yurgizishga harakat qilgan bo'lsada o'zining butun hukmronligi davrida Ga'znaviy sultonlar, avval Mahmud, keyin esa Ma'sudning vassali hisoblangan hamda harbiy yurishlar davrida G'aznaviylar qo'shinini Xorazm qo'shini bilan to'ldirib turgan.

O'z davrining qudratli hukmdori Sulton Mahmud G'aznaviy 1030 – yilda vafot etadi. Shundan so'ng Mahmudning vasiyati bilan ulug' hojib Ali Qarib boshchiligidagi bir guruh amaldorlar hukmdorning kichik o'g'li Muhammadni taxtga o'tqazadilar. Ammo, o'sha yilning o'zidayoq Mahmudning katta o'g'li Mas'ud taxtni ukasidan tortib olishga muvaffaq bo'ladi.

Mas'ud G'aznaviy otasi tuzgan davlatni butunligicha saqlab qololmadi. Uning hukmronligi davrida (1030-1041) G'aznaviylar davlati o'z qo'l ostidagi hududlarni birin-ketin qo'ldan chiqara borib, inqirozga yuz tuta boshladi. G'aznaviylardan birinchi bo'lib Xorazm ajralib chiqdi. 1034 – yilda Horun ibn Oltintosh G'aznaviylarga qarshi isyon ko'tardi. U Saljuqiylar va Qoraxoniylar bilan do'stona munosabat o'rnatib, Xorazmni G'aznaviylardan mustaqil deb e'lon qildi va Sulton Ma'sud nomiga xutba o'qishni bekor qilish to'g'risida farmon berdi. Horun ibn Oltintosh o'sha yili katta qo'shin bilan Xurosonga yurish qildi. Lekin Sulton Ma'sud tomonidan sotib olingan kishilar Horun ibn Oltintoshni o'ldirdilar. Uni qo'llab-quvvatlagan Qoraxoniylar yana Samarqandga qaytib ketadi. Shundan so'ng Sulton Ma'sud G'aznaviy Qoraxoniylar bilan muzokaralar olib boradi va shu yo'l bilan G'aznaviylar hokimiyatiga bo'lgan xavfni biroz kamaytiradi.

XI asrning 30 – yillarida Xurosonning bir qator viloyatlarida G'aznaviylar Saljuqiylardan mag'lub bo'lishdi. 1035 – yilda Mas'ud G'aznaviy To'g'rulbekka Nisoni, Chag'ribekka Dehistonni, Musoga Farovani berishga majbur bo'ladi. 1039

¹ В.В.Бартольд. “Туркестан в эпоху монгольского нашествия”. Соч. т. I. Изд. “Восточной литературы”, М, 1963. С. 340-341.

– yilda Xurosondagi mag'lubiyatdan so'ng Mas'ud saljuqiy qabilalari bilan tinchlik sulhi tuzadi. Kelishuvdan so'ng, Saljuqiylar Saraxs, Obivard, Farova va Nisoni boshqarish huquqini oladilar¹.

G'aznaviylarning asosiy raqiblari Saljuqiylar bo'ldi. Sulton Ma'sud katta qo'shin bilan Saljuqiylar ustiga yurish qildi. 1040 – yilning may oyida Mari yaqinidagi Dandanakon degan joyda bo'lgan jangda Sulton Ma'sud qo'shini Saljuqiylar tomonidan uzil-kesil tor-mor etildi. Mag'lubiyatga uchragan Ma'sud zo'rg'a qochib G'aznaga keldi va ko'p o'tmay fitnachilar tomonidan o'ldiriladi². Ma'sud o'limidan (1041 – yil yanvar) so'ng uning ukasi Muhammad qisqa vaqt hukmronlik qildi. Lekin, Ma'sudning g'ayratli o'g'illaridan biri Ma'dud (1041-1048) 1041 – yil aprelda taxtni egalladi³. Ammo, Sulton Ma'sudning vorislari G'aznaviylar davlatining ilgarigi qudratini tiklashga muvaffaq bo'la olmadilar. 1186 – yilda G'uriylar sulolasidan bo'lgan G'iyosiddin Muhammad G'aznaviylarni uzil-kesil tor-mor etdi.

Butun XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy hayotida Saljuqiylar sulolasidan chiqqan hukmdorlar faollik ko'rsatdilar. Saljuqiylar sulolasiga o'g'uzlarning qiniq urug'idan bo'lgan Saljuqbek asos solgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 1025 – yilda Movarounnahrda Saljuqning nabiralari Mahmud G'aznaviyga murojaat qilib Shimoliy Xurosonga ko'chishni (4000 oila) so'raydilar. Mahmud G'aznaviyning ruxsati bilan shu yili Saljuqning nabiralari boshliq qiniq qabilalari Saraxs, Farova va Obivard atroflariga joylashib, bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotga tezda aralashib ketdilar. Ayniqsa, Sulton Alp Arslon (1063-1072) va Sulton Malikshoh (1072-1092) hukmronligi davrida Saljuqiylar davlatining hududlari yanada kengayib, mamlakatning yuksalgan davri bo'ldi. K. E. Bosvortning ta'kidlashicha Sulton Malikshoh sharqda G'aznaviylarni Xorazm hamda g'arbiy Afg'oniston hududidan surib chiqarishga erishdi. Hukmronligining oxirlariga kelib Malikshoh Movarounnahrda yurish qilib Qoraxoniylarni o'ziga

¹ С.Г.Агаджанов. “Сельджукиды и Туркмения в XI-XII вв.”. Ашхабад, Изд. “ЫЛЫМ”. 1973. С. 9.

² В. Eshov. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. Т. : “Ma'rifat”. 2009. 250-bet.

³ В.В.Бартольд. “Туркестан в эпоху монгольского нашествия”. Соч. т. I. Изд. “Восточной литературы”, М, 1963. С. 366.

bo'ysundirdi. O'zganni ham qo'shib olgandan so'ng Qoshg'ar xoni uning oily hokimiyatini tan oldi¹. Sulton Malikshoh vafotidan so'ng uning vorislari o'rtasida taxt uchun kurash avj olib ketdi. Bir necha yillik kurashlardan so'ng Sulton Malikshohning o'g'li Sulton Sanjar (1118-1157) taxtni egallashga muvaffaq bo'ladi. Abulhoris Sanjar Buyuk Saljuqiylar imperiyasining so'ngi sultoni edi. Sulton Berkyoriq va Muhammad Topar davrida u Xurosonda hokimlik qilgan. 1118 – yilning 18 – aprelida Saljuqiylar sultoni Muhammad Topar vafot etadi. Taxtga uning 14 yoshli o'g'li Mahmud o'tiradi. Bu esa Sanjarning noroziligiga sabab bo'ladi. Sulton Mahmud va Sanjar o'rtasida 1118 – yil 14 – avgustda to'qnashuv bo'ladi. Bu jangda Sanjar g'alaba qozonadi hamda Buyuk Saljuqiylar davlati sultoniga aylanadi². Sulton Sanjar boshqaruvi davrida Sharqiy Saljuqiylar davlati O'rta Osiyodagi eng qudratli davlat edi. Juda ko'plab harbiy zafarlar evaziga Xuroson va unga qo'shni bo'lgan boy o'lkalarni qo'shib oldi. Saljuqiylar qo'shini Movarounnahr va Yettisuvdan juda katta o'ljalari olishdi. Sulton Sanjarning Qatvon cho'lidagi Qoraxitoylardan mag'lubiyati markaziy hokimiyatga qarshi kuchlarning bosh ko'tarishiga olib keldi. Xorazmshoh Otsiz Xurosonni egallashga kirishdi. 1143 – yilda Sulton Sanjar Otsiz ustiga qo'shin tortishga majbur bo'ladi. Ikki o'rtada sulh tuzilib Otsiz vaqtincha bo'lsada Sulton Sanjarga tobeligini bildiradi³.

Davlat juda katta hududlarni o'z ichiga olganligidan uni yagona markazdan turib boshqarish nihoyatda mushkul edi. Markazdan turib boshqarishning qiyinligi, sulola vakillarining toj-taxt uchun kurashlari, mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilishlari Saljuqiylar davlatining zaiflashuviga sabab bo'lgan edi. Saljuqiylar davlatining tanazzulga uchrashida G'uz qabilalarining o'rni katta bo'ldi. 1153 – yilda ular Sulton Sanjar qo'shinlarini tor-mor etib, uning o'zini asir oldilar. Sulton Sanjar 1156 – yilda asirlikdan qochishga muvaffaq bo'ldi. Lekin, Saljuqiylar davlatini tiklay olmadi va bir yildan keyin vafot etdi.

¹ К. Э. Босворт. “Мусулманские династии”. Москва. Изд. “Наука”. 1971. С. 163.

² В. М. Запорожец. “Сельджуки”. Москва. “Воениздат”. 2011. С. 165-166.

³ С.Г.Агаджанов. “Сельджукиды и Туркмения в XI-XII вв.”. Ашхабад, Изд. “БЫЛЫМ”. 1973. С. 14-15.

XII asr O'rta Osiyo siyosiy hayotida yabgi bir sulola Anushteginiylar faoliyati muhim ahamiyatga ega. Anushreginiylar Saljuqiylarning sodiq noiblari sifatida Xorazmni idora qilishni boshlaganlar. Sulola asoschisi Anushtegin yoshligida Garchistonda yashagan turk quli edi. Tarixchilar Rashiddin va Xofizi Abru uning o'g'uz turklarining bekdili urug'iddan deb yozishadi¹. Saljuqiylar sultoni Malikshoh Anushteginni Xorazmga noib etib tayinlaydi. Anushteginning o'g'li Qutbiddin Muhammad Xorazmda o'z mavqaeini mustahkamlash uchun kuch g'ayrat sarfladi. U Sulton Sanjarga ixlos va sadoqat bilan hizmat qildi. Sulton Sanjar Samarqandga Arslonga qarshi yurish qilmoqchi bo'lganida Movarounnahr aholisi Qutbiddin Muhammadga maktub yo'llab nizoni bartaraf etishda yordam so'raydilar. Ana shu vaqtda Xorazmshoh Arslonxon iltimosini inobatga olib, Sulton Sanjar bilan xon o'rtasidagi nizoni bartaraf etishga erishadi. Bu vositachilik muvaffaqiyati ham Xorazmshohning obro'yi va kuch-qudrati naqadar ortganligidan dalolat beradi².

Qutbiddin Muhammad vafot etgach Sulton Sanjar Xorazm hukmdorligini uning o'g'li Alouddin Otsizga (1127-1156) topshiradi. Otsiz imkon qadar mustaqil siyosat olib borishga harakat qiladi. Uning mustaqil siyosat olib borishga harakat qilishi Sulton Sanjar bilan bir-necha bor to'qnashuvlarga olib keldi. Alouddin Otsiz qancha harakat qilmasin Xorazmning to'la mustaqilligini taminlay olmadi. Otsiz vafot etgach taxtni o'g'li El-Arslon (1156-1172) egalladi. Bu haqda Z. Bunyodov ta'kidlashicha Hijriy 551 – yil, rajab oyining uchinchi kuni (1156 – yil 22 – avgust) El-Arslon Xorazmshohlar taxtiga o'tirdi. Birinchi farmoniga ko'ra sipohiylar maoshi va iqto' yer-mulklari ko'paytirildi. El-Arslon otasining siyosatini davom ettirib Xurosonga katta e'tibor qaratdi. U avvalo, Sulton Sanjarga itoat etishini bildirib noma va sovg'a-salomlar yubordi. Sulton hij. 551 – yil, ramazon oyida El-Arslonni xorazmshoh deb e'tirof etib, yorliq va faxriy chopon yubordi³. El-Arslon davrida mustaqillik uchun qulay vaziyat yuzaga keldi chunki

¹ Z. M. Bunyodov. "Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231)". T., "G'G'ulom".1998. 7-bet.

² O'sha asar, 9-bet.

³ O'sha asar, 43-bet.

bu paytga kelib Sulton Sanjar ham vafot etgan (1157 - yil) Saljuqiylar o'rtasida ichki nizolar boshlangan edi. Elarslon turkman va qipchoq qabilalari yordamida Movarounnahrning ichki ishlariga ham aralasha boshlaydi.

Elarslon vafotidan so'ng uning o'g'illari Alouddin Takash va Sultonshoh Mahmud o'rtasida taxt uchun kurash boshlanadi. Bu kurashda oxir-oqibat Takash (1172-1200) g'olib chiqadi. Takash davrida Xorazmshohlar davlati hududlari yanada kengayib qudratli davlatlardan biriga aylandi. Mamlakatda qattiq tartib-intizom o'rnatiladi.

1. 2. §. O'rta Osiyoning XI asr siyosiy hayoti tarixiga oid manbalar

Vatanimiz tarixini o'rganishda yozma manbalarning ahamiyati kattadir. Xususan XI asr siyosiy hayotini aks ettirgan manbalarning ham o'rni alohida. Chunki, XI asr O'rta Osiyoning siyosiy hayotini asosan yozma manbalar orqaligini o'rgana olish mumkin. Ushbu davrda O'rta Osiyo hududida bir qancha turkiy sulolalar tomonidan asos solingan davlatlar hukmronlik qildilar. Bular G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar kabi davlatlardir.

XI asr birinchi yarmi O'rta Osiyoning siyosiy hayoti tarixini o'rganishda "Tarixi Mas'udiy" asarining o'rni beqiyosdir. Bu asar muallifi Abulfazl Muhammad ibn al-Husayin al-kotib al-Bayhaqiydir (995-1077) . U Eronning Nishopur shahrida badavlat mansabdor oilada dunyoga kelgan va ko'p yillar davomida G'aznaviylar davlatida turli lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan.

Abulfazl Bayhaqiyning "Tarixi Oli Mahmud" asari 30 jilddan iborat bo'lgan. Lekin bizgacha uning faqat kichik bir qismi (6-jildining ikkinchi qismi, 7, 8, 9 jildlari hamda 10-jildning bir qismi) yetib kelgan xolos. Bu qismlar Sulton Mas'ud (1030-1041) hukmronligi davri tarixini o'z ichiga olgan va "Tarixi Mas'udiy" nomi bilan ham ma'lum.¹ Bu asar yana oddiygina qilib "Tarixi Bayhaqiy" deb nomlanadi, bunday nomlanish birinchi bor Morley tomonidan Kalkuttada (1862) chop etilgan matnida va keyinroq Tehronda (1307/1889-90) chop etilgan matnida uchraydi. Muallifning o'z asarini qanday nomlagani esa bizga nomalumdur. Muallif va uning asari haqida uning vatandoshi Abul Xasan Bayhaqi o'zining "Tarixi Bayhaq" asarida ma'lumot bergan. Ammo Abul Xasan asarning birirta to'liq nusxasini emas balki faqat alohida bir qisminigina ko'rgan xolos. Asarning birinchi jildidagi (Sulton Mahmud haqidagi) ma'lumotlarni XV asrga oid Xofizi Abruning asarida ham uchratishimiz mumkin.²

"Tarixi Mas'udiy" muallif o'zi ko'rgan va ishonchli kishilardan eshitgan ma'lumotlar, shuningdek, xukumat mah-kamalarida saklanayotgan rasmiy xujjatlar asosida

¹ B. Ahmedov "O'zbekiston tarixi manbalari" T, "O'qituvchi", 2001, 152-bet.

² В. В. Бартольд, "Работы по источниковедению". Соч. т. VIII. Изд. "Наука", М, 1973, С. 583.

yozilgan. Asar daliliy ma'lumotlarga boyligi, voqealarning chuqur va atroflicha bayon etilishi va nihoyat, zo'r badiiy mahorat bilan yozilganligi bilan boshqa tarixi y asarlardan farq qiladi. Asarda G'aznaviylar davlatining ijtimoiy-siyosiy hayotiga alohida to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari G'aznaviylar bilan qo'shni davlatlar o'rtasidagi munosabatlar jumladan, Xorazm, Saljuqiylar, Qoraxoniylar bilan bo'lgan siyosiy aloqalar mohirlik bilan yoritib berilgan. Ayniqsa, G'aznaviylar bilan Xorazm, Saljuqiylar hamda Qoraxo-niylar davlati o'rtasida bo'lgan siyosiy munosabatlar haqida qimmatli ma'lumotlar ko'p

“Tarixi Mas’udiy” asarining bir qancha qo’lyozma nusxalari mavjud. Ular orasidagi eng eng muhimi XVI asrda Hindistonda ko’chirilganidir. Bu qo’lyozma bugungi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Ilk bor “Tarixi Mas’udiy” asarining forsiy matnini ingliz sharqshunosi U. H. Morley nashrga tayyorlagan. Ammo kitob uning vafotidan keyin Hindistonning Kalkutta shahrida 1862-yili chop etilgan. Oradan 25 yil o’tgach “Tarixi Mas’udiy” asarining matni Tehronda toshbosma usulda yana nashrdan chiqdi (1886). Ushbu matn Adib Peshovariy nomi bilan mashhur eronlik olim Ahmad Peshovariy tomonidan sharhlanib nashr etildi. U matnni tayyorlashda Morley nashriga murojaat etgan, lekin qo’lyozmaga asosiy etiborini qaratgan. Asar matni nasx xatida bosmaga tayyorlangan¹. Forscha matnning tahliliy nashri to’ldirishlar bilan birga 1945-yilda Tehron universiteti professorlari G’ani va Fayoz tomonidan chop etganlar². Said Nafisiy 1941-54-yillari, Asarning arabcha tarjimasi ham bo’lib Qohirada universitet professori misrlik Yahyo Hashshob va eronlik olim Sodiq Nashot tomonidan chop etilgan. Bu nashr haqida taniqli arab olimi Taxo Husayin Tehronda chop etiladigan Yag’mo jurnalida qisqagina ma’lumot berib o’tgan³. “Tarixi Mas’udiy”ning tahliliy matni olti marotaba nashrdan chiqqan, bu esa manbaning muhim ahamiyatga ega ekanligidan guvohlik beradi. Eronlik tadqiqotchilar Rahbar va Fayoz tomonidan tayyorlangan so’ngi ikki nashr keng

¹ [http:// www. vostlit. Info/Texts/rus9/Baihaki/-framepredhtm](http://www.vostlit.info/Texts/rus9/Baihaki/-framepredhtm).

² В. В. Бартольд, “Работы по источниковедению”. Соч. т. VIII. Изд. “Наука”, М, 1973. С. 583

³ [http:// www. vostlit. Info/Texts...](http://www.vostlit.info/Texts...)

tahliliy-ilmiy nashr talablariga to'liq javob bera oladi¹. “Tarixi Mas’udiy” asari sovet davri tarixchilarining ham e’tiborini qozongan edi. Asar manbashunos olim A.K.Arends tomonidan rus tilida ikki marotaba nashrdan chiqarildi².

“Tarixi Mas’udiy” dan o’z ilmiy tadqiqotlarida manba sifatida foydalangan dastlabki tadqiqotchilardan biri bu taniqli sharqshunos olim V.V.Bartold hisoblanadi. U o’zining “Turkiston mo’g’ul bosqini davrida”³ deb nomlangan mashhur asarini yozishda “Tarixi Mas’udiy” dan asosiy manbalardan biri sifatida foydalandi. Bundan tashqari u “Manbashunoslik bo’yicha tadqiqotlar”⁴ asarida Abulfazl Bayhaqiy va uning “Tarixi Mas’udiy” asarining ahamiyati haqida bizga qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Yana ko’plab sovet davri tarixchi, manbashunos, sharqshunos olimlari ushbu asardan o’z tadqiqotlarida foydalanganlar va bu asarga yuqori baho berganlar.

“Tarixi Mas’udiy” nafaqat tarixchilarning balki, tilshunos olimlarning ham e’tiboriga sazovor bo’lgan asardir. Bu asar ustida lingvistik tadqiqotlar olib borgan Maxmatqul Solihov o’zining nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan⁵. M.Solihov nafaqat asarni lingvistik nuqtai-nazardan o’rgandi balki, u asar qo’lyozma nusxalari, turli davrlarga oid nashrlar, asarni o’rganilish tarixiga ham e’tibor qaratib o’tgan.

“Tarixi Mas’udiy” asari ustida olib borilgan so’ngi yirik tadqiqotni Tojikistonlik tarixchi Sayfullo Mullajonov amalga oshirdi. U asarni tadqiq etish orqali G’aznaviylar davlatining ichki siyosati, qo’shni davlatlar bilan bo’lgan munosabatlarni, davlat qurulishi masalalarini ochib berdi. Bundan tashqari “Tarixi Mas’udiy” asarining o’rganilish tarixini ham tadqiq etganligi alohida e’tiborga

¹ К.С.Муллажанов. “Та’рихи Мас’уди” Абулфазл Байхаки как источник по изучению государственного устройства Газнавидов. Автореферат, кандидат исторических наук, Душанбе, 2000, с 7-8.

² Байхаки Абулфазл. “Та’рихи Мас’уди”./Перевод и примеч.А.К.Арендс. Ташкент, 1962. Байхаки Абулфазл. “Та’рихи Мас’уди” (1030-1041). Перевод и примеч. А.К.Арендс . Москва, Изд. 2-ое доп. “Наука”, 1969.

³ В.В.Бартольд. “Туркестан в эпоху монгольского нашествия”. Соч. т. I. Изд. “Восточной литературы”, М, 1963.

⁴ В. В. Бартольд, “Работы по источниковедению”. Соч. т. VIII. Изд. “Наука”, М, 1973.

⁵ М.Салихов. “Префиксальные глаголы в История Бейхаки”. Автореферат, кандидат филологических наук, СП Гос.Унив. Санкт-Петербург, 1993.

loyiqdir. S.Mullajonov “Tarixi Mas’udiy” asari bo’yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan¹.

Abulfazl al-Bayhaqiyning “Tarixi Mas’udiy” asari butun dunyo sharqshunos, tarixchi olimlarining doimo diqqatini tortib kelgan qimmatli manbadir va bundan keyin ham uning ahamiyati aslo kamaymaydi. G’aznaviylar davlati tarixi bilan bog’liq savollarga javob topishda, ushbu davlat tarixini tadqiq etishda, hamda o’sha davr siyosiy hayotini to’g’ri mushohada qilishda “Tarixi Mas’udiy” asariga murojaat qilmaslikning deyarli iloji yo’q. Chunki muallif o’z asarida bevosita o’zi guvoh bo’lgan hodisalarni ham bayon etganligi bilan u yanada qadrlidir.

XI asrga oid muhim manbalardan biri Abu Nasr Muhammad ibn Abduljabbor al-Utbiy (961-1022; boshqa ma’lumotlarda vafoti 1036 yoki 1040)² ning “Tarixi Yaminiy”³ (“Yamin ud-davla tarixi”) asaridir. Abu Nasr al-Utbiy Eronning Ray shahridan bo’lib, badavlat zodagon oilaga mansub bo’lgan. U G’aznaviy hukmdorlaridan bo’lgan Sobuqtegin (977-997), Sulton Mahmud (997-1030) va Sulton Mas’ud (1030-1041) davrlarida saroyda yuqori davlat lavozimlarida faoliyat ko’rsatgan.

Abu Nasr al-Utbiy o’z asarini 1021-yilda yozib tamomladi. Muallif asosiy e’tiborini Sulton Mahmud nomini ulug’lashga qaratadi, lekin g’aznaviylar tomonidan tomonidan amalgam oshirilgan zulmni xolisona ta’riflab bergan. Asar X-asrning ikkinchi yarmi – XI-asrning birinchi choragi O’rta Osiyo tarixiga oid asosiy manbalardan biri hisoblanadi⁴. Al-Utbiy asari qaysi davr voqealarini yoritishi haqida akademik V.V.Bartold bizga aniqroq ma’lumot qoldirgan va quyidagi fikrni bildirgan: “Bu asardan biz 365-412 hij.yil⁵ voqealari haqida to’liq

¹ К.С.Муллажанов. “Та’рихи Мас’уди” Абулфазл Байхаки как источник по изучению государственного устройства Газнавидов. Автореферат, кандидат исторических наук, Душанбе, 2000.

² <http://dicakademic.ru/dic.nst/sic/18364/УТБИ>.

³ Yamin - arabcha o’ng qo’l, Sulton Mahmudga Bog’dod xalifasi al-Qodir (991-1031) tomonidan berilgan faxriy nom.

⁴ С.Г.Агаджанов. “Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии в IX-XIII вв”. Ашхабад, Изд. “ЫЛЫМ”, 1969, с 15.

⁵ Milodiy 976-1021 yillar

ma'lumot olamiz; Utbiyning ushbu davrga oid ishi Ibn al-Asir va boshqa mualliflar uchun asosiy manba bo'lib hizmat qilgan"¹

Asarda Qoraxoniylarning Movarounnahrni bosib olishi haqida keltirilgan ma'lumotlar benihoyat qimmatlidir. "Tarixi Yaminiy" o'rta asr tarixshunosligiga xos og'ir uslub (saj) bilan yozilgan². Arabcha nusxasi 1847-yili Dehlida Shprenger tomonidan nashr etilgan. Boshqa bir nashr shayx Manining filologik sharhi bilan Qohirada 1296/1869-yilda chop etilgan. 1301/1883-yilda Utbiy asari yana Qohirada Ibn al-Asir matni bilan birga nashr etilgan. Peterburg Fanlar Akademiyasi Osiyo muzeyida "Tarixi Yaminiy"ning 663/1265-yilda ko'chirilgan ajoyib qo'lyozma nusxasi saqlanadi. Utbiy asari 602/1205-yilda Abu Sharif Nosih ibn Ja'far al-Jarbodaqoni tomonidan fors tiliga tarjima qilingan³. Bundan tashqari 1874-yilda Buloq va 1883-yilda Lohur shaharlarida chop etilgan. Undan ayrim parchalar K.Shefer, T.Nyoldeke, G.Elliot va N.Douson tomonidan fransuz, nemis va ingliz tillariga tarjima qilingan. Asarni Londonda 1858-yili Reynolds ingliz tiliga tarjima qilgan⁴.

XI asrning mashhur tarixchilaridan biri Abu Sa'id Abdulhay ibn Zaxxok ibn Mahmud Gardiziydir. U G'azna yaqinidagi gardiz qishlog'ida tavallud topgan. Uning mashhur asari "Zayn ul-axbor" ("Tarixlar bezagi") deb nomlanib G'aznaviy Sulton Abdurashid (1049-1053) ga bag'ishlangan. "Zayn ul-axbor"ning to'liq matnini nashr etgan Abdulhay Habibi so'ngi dalillarga asoslanib Gardiziyning tug'ilgan yilini aniqlashga harakat qildi va taxminan 400/1008-1009-yillar deb belgiladi. Asarning "Xuroson amirlari haqida xabar" deb nomlangan yettinchi bobining so'ngi qismida Gardiziy Sulton Mahmudning Hindiston, Nimro'z, Xorazm va Iroqqa qilgan yurushlariga guvoh bo'lganligini yozadi. Agar asar muallifi o'sha paytda 20 yoshda bo'lgan bo'lsa, u taxminan 400/1008-1009-yillarda tug'ilgan, o'zining kitobini yozgan paytda u qirq yoshdan oshgan edi.

¹ В.В.Бартольд. "Туркестан в эпоху монгольского нашествия". Соч. т. I. М, Изд. "Восточной литературы", 1963. С. 64-65.

² B. Ahmedov "O'zbekiston tarixi manbalari" T, "O'qituvchi", 2001, 125-bet.

³ В.В.Бартольд. "Туркестан..." С. 65.

⁴ A. Madraimov, G. Fuzailova. "Manbashunoslik" T, "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2008, 152-bet.

Gardiziy sharq mualliflarining tarixiy va geografik asarlarini juda yaxshi bilgan, o'z zamonasining yuksak madaniyatli kishisi ekanligi haqida uning yozgan asari guvohlik beradi. "Zayn ul-axbor" voqealari Qadimgi dunyo davridan boshlanib G'aznaviy hukmdorlaridan Sulton Mavdud (1041-1051) va Sulton Muhammad (1030-1031; yana 1041) o'rtasida 1041-yili Dinovorda bo'lgan urushgacha Xurosonda sodir bo'lgan voqealar haqida hikoya qiladi.

Gardiziy mazkur asarini yozishda as-Sallomiyning "Kitob fi axbor vuloti Xuroson", al-Jayhoniyning "Ajoyib al-buldon", shuningdek, ibn al-Asir hamda ibn Xalliqon asarlaridan ham foydalangan¹. Ushbu asarning yagona mashhur qo'lyozmasi Oksforddagi Bodli kutubxonasida saqlanadi. Gardiziyning bayon etish uslubi juda oddiy bo'lib katta qiyinchilik tug'dirmaydi lekin asosiy qiyin tomoni keyinroq ko'chirilgan qo'lyozmalarda saqlanib qolgan ko'p ma'noli qadimiy so'z va shakllardir. Ayrim so'z va shakllarning ma'no-mazmuni ko'chiruvchi xattotlarga nomalum bo'lgan va bu matnda tushunmovchiliklarga sabab bo'lgan². Nemis sharqshunosi Markvartning ma'lum qilishicha bu asar bilan Edvard Zaxau qiziqqan va Oksforddagi Bodli kutubxonasidagi sharq qo'lyozmalari bo'limida tadqiq etgan. Uning vafotidan so'ng bu ishni G.Ete davom ettirgan va "Zayn ul-axbor"ni to'liq tavsiflab bergan. Bodli qo'lyozmasidan tashqari yana boshqa bir qo'lyozma Kembrij qirollik kolleji kutubxonasida saqlanadi³.

"Zayn ul-axbor" ning turkiy xalqlar haqidagi bobi V.V.Bartold tomonidan 1900-yilda rus tilida nashr etilgan. Asarning asl nusxa matnining bir qismi Muhammad Nozim tomonidan Londonda 1928-yilda nashr ettirgan. Matnning ushbu qismini Muhammad Qazvini Tehronda 1937-yilda yana bir bor nashr ettirdi. Eronlik mashhur olim Said Nafisi Tehronda 1333/1954-yilda asarning juda muhim bo'lgan to'rtinchi bobidan (Sosoniylar davri) yettinchi bobining ("Xuroson hukmdorlari haqida xabar") oxirigacha nashr ettirdi. Nihiyot asarning to'liq matni mashhur ikkala qo'lyozmasi asosida (Kembrij hamda Oksfordda saqlanayotgan)

¹ B. Ahmedov "O'zbekiston tarixi manbalari" T, "O'qituvchi", 2001, 148-bet.

² <http://www.drevlit.ru/texts/g/gardizi1.php>

³ <http://www.vostlit.info/Texts/rus7/Gardizi/predphtm/?id=298>

afg'onistonlik olim Abdulhay Habibi tomonidan 1347/1965-yilda Tehronda fors tilida nashr etilgan. Ushbu nashr asosida A.K.Arends asarni rus tiliga tarjima qilib Toshkentda 1991-yilda chop ettirdi.

XI asrning yana bir muhim manbalaridan biri bu “Siyosatnoma” asaridir. Ushbu asar muallifi o'z davrining mashhur tarixchisi va davlat arbobi Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishoq at-Tusiydir (1018-1092). Ko'proq Nizomulmulk¹ nomi bilan mashhur. Saljuqiy sultonlaridan Alp Arslon (1063-1072) hamda Malikshoh I ning hukmronligi davrida bosh vazir lavozimida faoliyat ko'rsatgan va Saljuqiylar davlatining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan. Nizomulmulk 1092-yili Isfaxondan Bag'dodga borayotganda yo'lda ismoiliylar²ning josusi tarafidan o'ldirilgan.

“Siyosatnoma” asarining yana bir nomi “Siyar ul-muluk” (“Podshohlar hayoti”) deb nomlanadi. Asar 1092-yili yozib tamomlangan va muallif Bag'dodga jo'nash oldidan uning ko'chirilgan bir nusxasini sulton kutubxonasi xodimlaridan Muhammad Mag'ribiyga Sulton Malikshohga topshirish uchun berib ketadi. Lekin, o'sha yili ismoiliylar Malikshohni ham o'ldirib ketadi. Shu sababli Muhammad Mag'ribiy topshiriqni bajara olmadi. Faqat oradan 13-14 yil o'tgandan keyingina asar Malikshohning o'g'li G'iyosiddin Muhammad I (1105-1118) ga topshiriladi. “Siyosatnoma” 51 bobdan iborat bo'lib, unda markaziy davlat apparatining tuzilishi va moliyaviy hisob-kitob ishlari, qo'shinning tuzilishi, yuqori davlat mansablari va ularga tayinlash tartiblari, qabul marosimlari, mansabdorlar ustidan nazorat qilish kabi umumdavlat masalalari o'rta qo'yilgan.

Asarda O'rta Osiyo va O'zbekiston tarixi haqida ham muhim va qimmatli ma'lumotlar bor. Somoniylar zamonida turk g'ulomlarining davlatning ijtimoiy-siyosiy hayoti-da tutgan o'rni, Turkiston xonlari (Qoraxoniylar) saroyida xizmat qiluvchi xodimlarning maishiy ahvoli, Somoniylar xizmatida bo'lgan amirlarning unvonlari, Xorazmshoh Oltintosh (1017-1032) bilan Sulton Mahmud G'aznaviyning vaziri Axmad

¹ Mamlakatni tartibga soluvchi

² X-XI asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan, shia oqimidan ajralib chiqqan mazhab tarafdorlari

ibn Hasan o'rtasidagi yozishmalar shular jumlasidandir. Asarda, bundan tashqari, karmatlar, botiniylar harakati, Muqanna qo'zg'oloni haqida ham ayrim diqqatga sazovor ma'lumotlar mavjud.

Mashhur rus sharqshunos olimi B. D. Zaxoderning "Siyosatnoma" ustida olib borgan ko'p yillik ilmiy izlanishlari shuni kursatdiki, asarning 43 bobi Nizomulmulk tarafidan, qolgan 8 bobi qariyb 20 yildan keyin uni qaytadan taxrir qilgan olim (nomi ma'lum emas) tomonidan yozilgan. "Siyosatnoma" ning forsiycha (1931, 1956 yy.), fransuzcha (1893 y.), inglizcha (1960 y.) hamda ruscha (1949 y.) tarjimalari mavjud.

"Devonu lug'at at-turk" ("Turkiy so'zlar lug'ati") – 638 sahifadan iborat turkey-arabiy lug'at - Mahmud Qoshg'ariy nomi mbilan mashhur bo'lgan XI asra yirik tilshunos olimining noyob asaridir. Olimning to'liq ismi Mahmud ibn al-Husayn ibn Muhammad al-Qoshg'ariy bo'lib, Qoraxoniylar xizmatida bo'lgan turk beklaridan birining oilasiga mansub. U 1029— 1038 yillar orasida taxminan Barsg'onda tug'ilgan, lekin umrining ko'p qismini Bolasog'un, Qoshg'ar, Bag'dod va boshqa shaharlarda o'tkazgan. Mahmud Qoshg'ariy yoshligida yaxshi ma'lumot olgan va o'rta asr fanining ko'p sohalarini, xususan arab tili, turkiy tillar, tarix hamda geografiya fanlarini chuqur egallagan¹. Hayoti va ilmiy faoliyati bilan atroflicha shug'ullangan olimlar (A. N. Kononov, A. Rustamov, Muallim Rif'at, H. Hasanov va b.) ning fikricha, Mahmud Qoshg'ariy U O'rta Osiyo, Eronga sayohat qilib, bu mamlakatlarning bir talay yirik shaharlarida bo'ldi, ularning mashhur kishilari (olimlari va shoirlari) bilan tanishdi, suxbatlashdi. Bu olimning bilimini nazariy va amaliy jihatdan birmuncha boyitdi.

Mahmud Qoshg'ariy o'zining turkiy tillarga bag'ishlangan ikki muhim asari bilan shuhrat topdi. Bulardan biri "Javohir an-nahv fi lug'at at-turk" ("Turk tili sintaksisi asoslari") nomi bilan ma'lum. Afsuski, bu muxim asar bizning zamonimizgacha etib kelmagan. Olimning ikkinchi asari ilmiy jamoatchilikka ko'p vaqtlardan beri ma'lum va mashhur bo'lgan "Devonu lug'at at-turk" ("Turkiy so'zlar lug'ati") dir. Bu asar 1072-1077 yillar orasida yozib tamomlangan va xalifa Muqta'diy (1075-1094 yy.) ga bag'ishlangan. Asar muallifning turk qabilalari va

¹ A. Madraimov, G. Fuzailova. "Manbashunoslik" T, "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2008, 154-bet

urug'lari orasida yurib to'plagan ma'lumotlari asosida yuzaga kelgan va XI asrdagi turkiyzabon qabila va urug'larning tili, lahjasini, shuningdek, ularning etnik tarkibini o'rga-nishda muhim manba vazifasini o'taydi.

“Devonu lug‘at at-turk” muqaddima va lug‘at qismlardan iborat. Muqaddimada turk tilining boshqa tillar orasidagi o‘rni va ahamiyati, uning ayrim xususiyatlari, mazkur asar-ni yozishda muallif o‘z oldiga qo‘ygan vazifalar, shuningdek, asarning tuzilishi haqida so‘z boradi.

Lug‘at qismida X—XI asrlarda turkiy xalqlar orasida iste’fodada bo‘lgan so‘zlar atroflicha izohlab berilgan. Lug‘atning tarix fani uchun qimmat shundaki, unda har bir turkiy qabila (bijanaq — pecheneg, qipchoq, o‘g‘iz, yamoq, boshqird, bismil, qoy, yaboqu, tatar, qirg‘iz, chi-gil, tuxsi, yag‘mo, uyg‘ur, ig‘roq, joruq, jumul va b.), ularning belgilari (tamg‘alari), turar joylari hamda ijti-moiy-siyosiy hayotda tutgan o‘rni atroflicha yoritib berilgan. Bu jihatdan Mahmud Qoshg‘ariyning mazkur asari O‘rta Osiyo, O‘zbekiston va Qozog‘istonning turkiyzabon xalqla-ri tarixini o‘rganishda, qolaversa o‘zbek xalqining etnik tarixini o‘rganishda bosh manbalardan biri hisoblanadi.

“Devonu lug‘at at-turk” ning yagona qo‘lyozma nusxasi hozir Istambul (Turkiya)da saklanmoqda. Asarning arabcha matni 1915-1917 yillari uch jildda Istambulda, mukammal o‘zbekcha tarjimasi S. M. Mutallibov tomonidan amalgam oshirildi va 1960— 1963 yillarda Toshkentda chop etilgan. Asarni usmonli turkcha tarjimasi 1939-1941 yillari B. Atali, inglizcha 1982-1985 yillarda R. Dankoff bilan J. Kelli, uyg‘urchasi esa 1981—1984 yillari chop ettirilgan¹.

Abu Rayhon Beruniyning tarixiy asarlaridan biri “Kitob ul-musammara fi axbori Xorazm” (“Xorazm haqidagi axborotlar xususida suhbatlar”) U “Tarixi Xorazm” (“Xorazm tarixi”), “Mashohiri Xorazm” (“Xorazmning mashhur kishilari») nomi bilan ham ma’lum. G‘aznada yozilgan. Asarda Xorazmning Sulton Mahmud G‘aznaviy qo‘shini tomonidan bosib olinishidan (1017 y.) to Saljuqiylar xuruji (1043 y.) gacha o‘tgan davr ichidagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan bahs yuritiladi. Afsuski, bu muhim asar bizning zamoni-mizgacha etib kelmagan. Ayrim parchalar

¹ A. Madraimov, G. Fuzailova. “Manbashunoslik” T, “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2008, 154-bet

Abulfazl Bayhaqiyning (q.) 1056 yili yozib tamomlangan “Tarixi Bayhaq”, Yoqut Xamaviyning (q.) “Mo‘jam ul-buldon” asarlarida saqlanib qolgan.

O’rta Osiyo tarixiga oid XI asr manbalari nafaqat shu davr tarixini o’rganuvchi tarixchilar uchun balki tariximizning undan avvalgi voqealarini o’rganishda ham muhimdir. XI asr tarixiga oid manbalarning aksariyati Chor Rossiyasi va Sho’rolar davrida, shuningdek xorijiy mamlakatlarda o’rganildi hamda ilmiy tadqiqotlarda foydalanildi. Hozirgi kunda esa ushbu davr manbalarini yangicha tadqiqot usullari yordamida yanada chuqurroq o’rganish zarurdir.

1. 3. §. O'rta Osiyoning XII asr siyosiy hayoti tarixiga oid manbalar

XII asr O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixiga oid qimmatli manbalardan biri "Al-Kamil fi-t-ta'rix" asaridir. Asar muallifi mashhur arab tarixchisi Abu-l-Xasan Ali ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Abdulkarim ibn Abdulvohid ash-Shayboniydir (hijriy. 555-630 / milodiy 1160-1233). U ko'proq Izzuddin ibn al-Asir al-Jazariy nomi bilan mashhur. Ibn al-Asir Dajla daryosi yuqori oqimida, Mosul shahridan uch kunlik masofada joylashgan Jazirat ibn Umar shahrida tug'ilib o'sgan. Ibn al-Asirning tug'ilgan vaqti haqida eng aniq ma'lumotni bizga tarixchi Ibn Xalliqon qoldirgan bo'lib, uning takidlashicha Ibn al-Asir hijriy 555-yil jumoda-l-ula oyining 4-kunida (1160-yil 13-may) tug'ilgan. Keyinchalik u oilasi bilan birga Mosul shahriga keladi. U yerda ilm olish bilan mashg'ul bo'ladi va o'z ilmini Arabiston, Suriya va Falastin bo'ylab qilgan sayohatlarida yanada boyitadi. U ko'proq hadis va tarix ilmiga qiziqadi. Hayotining katta qismini Mosul shahrida o'tkazadi, o'zini fanga bag'ishlaydi. Hijriy 584-yilda (milodiy 1188-yil) hatto Salohiddin va salbchilar o'rtasidagi urushda ham qatnashadi. Umrining oxirlarida Suriyaga keladi so'ngra Mosulga qaytib o'sha yerda vafot etadi¹.

"Al-kamil fi-t-tarix" 12 jildidan iborat bo'lib, dunyoning yaratilishidan to 1231 yilga qadar Sharq mamlakatlarida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni yilma-yil, xronologik tartibda, bayon etib beradi. Asarda ko'pgi-na qimmatli manbalar, xususan Tabariy hamda as-Sallomiyning² bizgacha etib kelmagan "Kitob fi axbor vuloti Xuroson" ("Xuroson hukmdorlari haqida axborot beruvchi kitob") kabi asarlardan keng foydalangan.

"Al-kamil fi-t-tarix" ning birinchi kismi (I-II jildlari) olamning yaratilishi dan to 931 yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi; mustaqil ahamiyatga ega emas — avval o'tgan olimlarning (Balazuriy, Tabariy, Ibn Misqavayx, as-Sallomiy va b. q.) asarlariga tayanib yozilgan. Pekin bu qismda ham, ko'p hollarda, asosiy manbada (masalan, Tabariyda) uchramaydigan muhim va kimmatli ma'lu-motlar bor. Masalan, 751 yili Talas daryosi bo'yida arab va O'rta Osiyo qo'shinlari bilan Xitoy armiyasi

¹ <http://www.vostlit.info/Texts/rus/Athir/index.phtml?id=530>

oʻrtasida boʻlib oʻtgan urush va unda kup minglik xitoy armiyasining tor-mor etilishi haqidagi maʼlumot shularjumlasidandir. Un-dan tashqari, as-Sallomiy va uning muxim tarixiy asari haqidagi maʼlumot Ibn al-Asir tufayli bizgacha etib kel-gan. Asarning VII—XII jildlari mustaqil ahamiyatga ega boʻlib, 924-1231 yillar orasida SHarq mamlakatlarida, shuningdek Oʻrta Osiyo va Oʻzbekistonda boʻlib oʻtgan voqea-larni oʻz ichiga oladi va asosan qoʻlyozma manbalar, shuningdek tarixni yaxshi bilgan kishilar bergan axborot hamda muallifning shaxsiy kuzatuvlari bilan toʻplangan aniq maʼlumotlar asosida yozilgan.

Umumiy tarix yoʻnalishida yozilgan ushbu arab tilidagi koʻp jildli asarning bizgacha bir qancha qoʻlyozma nusxalari yetib kelgan boʻlib, uning alohida jildlari dunyoning turli qoʻlyozma fondlarida saqlanmoqda. Ibn al-Asir asarini evropalik sharqshunos olim S. Tornberg mavjud qoʻlyozmalar asosida toʻliq tadqiq etdi hamda 14 jildda 1851-1876 yillarda nashr ettirdi. Ibn al-Asir asarining yana bir qancha arabcha nashrlari mavjud boʻlib, ularning eng soʻngisi 1987-yilda Bayrut shahrida nashr etilgan. Ibn al-Asir asarining eski oʻzbek tilidagi toʻla tarjimasi ham mavjud, bu ish Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (hijriy 1282-1328 / milodiy 1865-1910) farmoni bilan 1901-1907 yillarda tarjimonlar guruhi tomonidan 12 jildli Misr nashri asosida amalgam oshirildi. Butarjimaning haqiqiysi va bir qancha nusxalari Abu Rayhon Beruniy nomli OʻzR FA Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondida (inv.№ 824, 825) saqlanmoqda¹. Asarning ayrim parchalari rus tilida N. A. Mednikov, A. E. Krimskiy tarafidan tarjima qilingan².

“Al-Kamil fi-t-taʼrix” asari tarjima, izohlar berish ustida koʻplab tadqiqotchilar ish olib borishgan. Bularga V. G. Tizengauzen, daniyalik olim I. Oystrop, rossiyalik sharqshunoslari I. N. Lemanov, S. Volin, P. Juze, K. B. Starkova, O. B. Frolov, ingliz olimi D. S. Richards kabilarni aytishimiz mumkin. Asarni toʻlaligicha tarjima qilish va unga izohlar berish ishiga ayniqsa, OʻzR FA muxbir aʼzosi filologiya fanlari doktori, professor P. G. Bulgakov katta hissa

¹ Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих. (Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г.Булгакова, дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камолиддин), Ташкент-Цюрих, 2005. С. 3-4

² A. Madraimov, G. Fuzailova. “Manbashunoslik” T, “Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2008, 157- bet.

qo'shdi. Keyinchalik uning ishini shogirdi Sh. S. Kamoliddin davom ettirdi. Bundan tashqari akademik V. V. Bartold o'z tadqiqotlarida asardan muhim manba sifatida keng foydalandi.

XII asr O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixini o'rganishda yana bir muhim manba "Axbor ad-daulat as-Saljuqiyya" asari hisoblanadi. Asar muallifi Xorazmshoh Takash (1172-1200) saroyida xizmat qilgan Sadriddin al-Husayniydir. Uning to'la ismi Sadriddin Abul-Xasan Ali ibn Nosir al-Husayniy bo'lib, o'z kitobini XII asr oxirlarida aniqrog'i hijriy 590 / milodiy 1194-yil¹dan keyin yozgan. Sadriddin al-Husayniy asarining asosiy qismi Saljuqiylar davlati tarixini o'zida mujassamlashtirgan, lekin unda XII asr oxiridagi boshqa voqea-hodisalarning ham bayoni berilgan². Asarning yana bir nomi bo'lib u "Solnomalar sarasi"³ deb nomlanadi.

Asar matnini nemis sharqshunosi K. Zyusxeym batafsil tadqiq etgan va u al-Husayniy asarini nemis tiliga tarjima qilib o'z tadqiqotlari bilan birga nashrga tayyorlaydi. Lekin K. Zyusxeymning bu maqsadi amalgam oshmay qoladi. Sadriddin al-Husayniy asarini Laxor shahridagi Panjob universiteti professori Muhammad Iqbol 1933-yilda birinchi marta nashr ettirishga muvoffaq bo'ldi. 1943-yilda esa Anqara universiteti professori Najoti Lug'al Sadriddin al-Husayniy asarini turk tiliga tarjima qiladi. Sadriddin al-Husayniy asaridan V.F.Minorskiy, R.K.Kiknadze, N.N.Shengeliya, K.E.Bosvort va boshqa tadqiqotchilar o'z ishlarida keng foydalanishgan⁴.

Asarning yagona mashhur nusxasi Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Professor Xautsmaning ta'kidlashicha Husayniy asarining bosh qismi Imomiddin al-Isfaxoniy asarining qisqartirilgan ko'rinishini o'z ichiga olgan, faqat Saljuqiylarning dastlabki davri tarixini bayon qilishda boshqa manbalardan

¹ В.В.Бартольд. "Туркестан в эпоху монгольского нашествия". Соч. т. I. Изд. "Восточной литературы", М, 1963. С. 74.

² С.Г.Агаджанов. "Сельджукиды и Туркмения в XI-XII вв". Ашхабад. Изд. "ЫЛЫМ. 1973. С.22.

³ В.В.Бартольд. "Туркестан в эпоху ...", С. 74.

⁴ <http://www.vostlit.info/Texts/rus/Selguk/framepred.htm>

foydalangan¹. Asar o'z zamonasi voqea-hodisalarini yaxshi yoritishi bilan juda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa O'rta Osiyo hududidagi davlatlar (Saljuqiylar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar), bundan tashqari Kavkazorti, Eron va Iroqda kechgan ijtimoiy-siyosiy hayot tarixini o'rganishimizda juda muhimdir.

XII asrning yana bir muhim manbalaridan biri Imodiddin Muhammad ibn Muhammad al-Isfaxoniy (hijriy 519-597-yillar / milodiy 1125-yil 20-iyun-1201-yil) ning "Nusrat al-fatra va usrat al-fitra" asaridir. Asar muallifi Imodiddin al-Isfaxoniy Isfaxon shahrida davlat amaldori oilasida dunyoga kelgan. Hijriy 539-yil / milodiy 1141-yilda Bag'dod shahriga keladi va Nizomiya madrasasida tahsil oladi. Imodiddin al-Isfaxoniy Misr Sultoni Salohiddin bilan birga to uning vafotiga qadar yani hijriy 589-yilgacha / milodiy 1193-yilgacha uning yurishlarida qatnashadi. Shundan so'ng u o'zining siyosiy faoliyatini yakunlaydi va qolgan umrini ilmiy izlanishlarga bag'ishlaydi².

Asarning yagona mashhur qo'lyozmasi Parij Milliy kutubxonasida saqlanmoqda va u o'tgan yuz yillikda (XIX asr) etibor qaratilgan. "Nusrat al-fatra va usrat al-fitra" asari Saljuqiylar vaziri Anushervon (vafoti hijriy 532 / milodiy 1137-yil) ning forschada bitgan yilnomasini qisqacha o'z ichiga olgan. Bu yilnoma hijriy 420 / milodiy 1029-yildan boshlanadi va Imodiddin tomonidan to hijriy 590 / milodiy 1194-yilgacha davom ettiriladi. "Nusrat al-fatra va usrat al-fitra" asari esa keyinroq qisqartirilib Abul Fath ibn Ali al-Bundarining asariga kiritiladi va "Zubdat an-nusra va nuxbat al-usra" deb nomlanadi. Umuman olganda Imodiddin al-Isfaxoniy asari XII asr O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarda sodir bo'lgan siyosiy voqealarni to'g'ri idrok etishimizda muhim manba bo'lib hizmat qiladi.

XII asrda yozilgan manbalardan biri "Kitob al-ansob" ("Nasablar haqida kitob") asari bo'lib uning muallifi Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur as-Sam'oniydur (1113-1167-y). Marvda yirik qonunshunos olim oilasida dunyoga kelgan, Marv, Buxoro hamda Samarqandda tahsil ko'rgan. 1155-1156

¹ В.В.Бартольд. "Туркестан в эпоху монгольского нашествия". Соч. т. I. Изд. "Восточной литературы", М, 1963. С. 74-75.

² http://vostlit.info/Texts/rus17/Isfachani_Imad_ad_din/texts1phtm/?id11280

yillarda Movarounnahr va Xorazmga sayohat qilgan. Ma'lum vaqt Nishopur, Isfaxon, Bag'dod, Xa-lab, Dimishq hamda Quddusi sharif shaharlarida hayot kechirgan. Sam'oniylar "Kitob ul-ansob" ("Nasablar haqida kitob" yoki "Mashhur kishilar haqida kitob") hamda 20 jildli "Marv tarixi" asarlarining muallifidir. "Marv tarixi" saqlanmagan. Fikrimizcha, bu muhim asar Chingizxon xuruji vaqtida kuyib ketgan bo'lishi mumkin, chunki o'shanda Marvning eng katta va boy kutubxonasi bilan birga Somoniylar xonadoniga tegishli bo'lgan ikki yirik kutubxona ham (Yoqut Hamaviy Somoniylar kutubxo-nasini ko'rganligini aytadi) yonib ketgan. Bizning zamonimizgacha olimning faqat "Kitob ul-ansob" asarigina etib kelgan.

Asarda alifbo tartibida islomiyatdan to muallifning zamonigacha musulmon mamlakatlarida, ko'proq Eron va Movarounnaxrda o'tgan mashhur kishilar haqida keng ma'lu-mot beriladi.

"Kitob al-ansob" Ibn Xalliqonning ma'lumotlariga ko'ra, 8 jildidan iborat bo'lgan. Afsuski uning to'la nusxasi saqlanmagan, faqat tarixchi Ibn al-Asir tarafidan tahrir etilgan 3 jildli qisqartirilgan tahririgina saqlanib qolgan xolos. Arabcha matni ikki marta nashr etilgan, bosh qismi 1835-yili V. Vyustenfeld tomonidan va to'la ravishda 1912-yili professor D. S. Margolius tarafidan chop etilgan. "Kitob al-ansob" ning Bayrut nashri ham bor¹. As-Sam'oniylar o'z asarida Islom dini rivojiga katta hissa qo'shgan shayxlar va boshqa mashhur shaxslar haqida alifbo tartibida ma'lumot beradi va ularning har birining qisqacha biografiyasini keltirib o'tadi. Uning shaharlarning nomlari va ularning aholisi haqidagi ma'lumotlari O'rta asr geograflari xususan Yoqut al-Xamavi uchun ham asosiy manba bo'lib hizmat qilgan². "Kitob al-ansob" Sharqiy Saljuqiylar davlati siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tarixidan ko'plab guvohliklar beruvchi asardir. Asarning alohida ahamiyatga egaligi unda g'uzlar tomonidan Saljuqiylarning Xurosondagi hukmronligiga barham berilishi voqealari ham bayon etilganidadir³.

¹ A. Madraimov, G. Fuzailova. "Manbashunoslik" T, "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2008, 155-156 bet.

² В.В.Бартольд. "Туркестан в эпоху монгольского нашествия". Соч. т. I. Изд. "Восточной литературы", М, 1963. С. 81.

³ С.Г.Агаджанов. "Сельджукиды и Туркмения в XI-XII вв". Ашхабад. Изд. "БЫЛИМ. 1973. С. 21.

XI asrning soʻnggi choragi va XII asrning birinchi yarmida oʻtgan adib, shoir va adabiyotshunos olim Nizomi Aruzi Samarqandiydir. Hayoti va ilmiy-adabiy faoliyatiga oid maʼlumotlar quyidagicha: haqiqiy ismi Najmiddin Ahmad ibn Umar ibn Ali asli Samarqandlik. Otasi bir paytlar Saljuqiy Alp Arslonning xizmatida boʻlgan. Nizomi Aruzi Samarqandiy taxminan XI asrning 90-yillarida tugʻilgan; 1116-1119 yillari Sulton Sanjar (1118-1157 yy.) saroyida Nishopurda hayot kechirgan, keyincha Gʻur va Bomiyon (Afgʻonistonning markaziy qismida joylashgan viloyatlar)da hukm yuritgan Shansabiylar (IX-X asrlar) xizmatiga kirgan va umrining oxirigacha oʻsha yerda kun kechirgan.

Nizomi Aruzi Samarqandiy etik-didaktik mavzuda yozilgan “Majmuʼ al-gʻaroib” (“Ajoyibotlar majmuasi”) yoki “Chor maqola” nomi bilan mashhur boʻlgan asar muallifidir. Asar 1156—1157 yillarda bitilgan boʻlib, toʻrt qismdan iborat: 1) dabirlar (ko-tiblar) va dabirlik hunari haqida; 2) sheʼriyat ilmi va shoirlarning qadr-qiymati xususida; 3) sayyoralar haqidagi ilm va munajjimlar haqida; 4) tibb (meditsina) ilmi va tabiblarga pand-nasihatlar¹.

Birinchi qismda qoraxitoylar bilan Sulton Sanjar oʻrtasida 1141 - yilning 9 - sentyabrda Samarqand atrofida boʻlgan urush, Qoraxitoylar bilan Xorazm, shuningdek, Sulton Mahmud Gʻaznaviy bilan Movarounnahr hukmdori Qoraxoniylar Bugʻraxon Muhammad (1033-1056 yillar atrofida vafot etgan) oʻrtasidagi siyosiy munosabatlar, qoraxitoylar istilosi arafasida Buxoro sadrlarining umumiy ahvoli haqida qisqa, lekin qimmatli maʼlumotlar keltirilgan².

“Chor maqola” ning ikkinchi qismida ham muhim maʼlumotlarni uchratamiz. Mashhur forsiyzabon shoirlar Rudakiy (taxm. 860-941 yy.), Farruhiy (1038 yili vafot etgan), Firdavsiy (taxminan 940-1020-1030 yillar orasi) larning hayotiga oid, shuningdek, Bodhizning tabiiy sharoiti, masalan u erda boʻlgan 1000 ga yaqin koriz, uzuming 120 navi, Qoraxoniylar davrida Movarounnahrning adabiy va madaniy hayotiga oid axborotlar shular jumlasidandir.

¹ A. Madraimov, G. Fuzailova. “Manbashunoslik” T, “Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2008, 168-bet.

² Oʻsha asar, 168-bet.

Uchinchi qismda Abu Rayhon Beruniy va Umar Hayyomning (taxm. 1048—1123) hayoti (Nizomi Aruzi Samarqandiy u bilan yaqindan tanish bo‘lgan) bilan bog‘liq ma’lumotlar berilgan.

To‘rtinchi qismda o‘zbekistonlik buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning (980-1037 yy.) Buxoro va Xorazmdagi ilmiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni uchratamiz¹.

Xullas, Nizomi Aruzi Samarqandiyning mazkur asari O‘zbekistonning X—XI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini o‘rgaiishda ma’lum ahamiyatga ega bo‘lgan manbalardan biri hisoblanadi.

“Chor maqola” ning forsiycha matni 1910 va 1955-1957 yillarda eronlik sharqshunos olimlar Mirzo Muhammadxon Qazvinii hamda Muhammad Mu’in tomonidan chop qilingan. Asar ingliz (1921 y.) hamda rus (1963 y.) tillariga ham tarjima qilingan.

XII asrning ikkinchi yarmi va XIII asr boshlarida o‘tgan tarixchi olim Faxruddin Muborakshoh Marvarrudiydir. Uning to‘la ismi: Faxruddin Muhammad ibn Mansur Marvarrudiy ko‘pincha Faxruddin Muborakshoh va Faxr mudir nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Tarjimai holiga oid ma’lumotlar juda kam. Faxruddin Muborakshohning o‘zi kitobining debochasida, shuningdek, ibn al-Asir va “Haft iqlim” muallifi Amin Axmad Roziy keltirgan ma’lumotlarga qaraganda, otasi ham, o‘zi ham, G‘uriylardan Shahobiddin (yoki Mu’izzuddin) Muhammad (1173-1206 yy.) saroyida xizmat qilgan va o‘z zamonasining keng ma’lumotli kishilaridan (az jumlayi ulamoyi zu funun) hisoblanganlar².

Faxruddin Muborakshoh Marvarrudiy 1206 yili o‘zining mashhur “Tarixi Muborakshoh” (“Muborakshoh tarixi”) asarini yozib tamomladi va Loxurda G‘iyosiddin Mahmudga taqdim etib, uning e’tiborini qozongan. Asar, muallifning so‘zlariga qaraganda, 13 yil ichida tamomlangan. “Tarixi Muborakshoh” 136 qism (shajara) dan iborat bo‘lib, unda Muhammad payg‘ambar, xulafayi Roshidin (Abubakr, Umar, Usmon, Ali), ansorlar, muhojir sahobalar, g‘assaniylar, ya’ni

¹ A. Madraimov, G. Fuzailova. “Manbashunoslik” T, “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2008, 168-bet

² O’sha asar, 171-bet.

Suriya hukmdorlari, Yaman pod-sholari, johiliyat zamonida, ya'ni islomiyatdan avval o'tgan shoirlar, sahobalar orasidan chiqqan shoirlar, Ajam podsholari (Peshdodiylar, Kayyoniyar, Ashkoniylar, Sosoniylar), Ummaviylar, Abbosiylar, Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar, G'aznaviylar va nihoyat G'uriylar tarixi bayon etilgan.

Asarning biz uchun qimmatini shundaki, unda Turkistonning sarhadlari va Turkistonda ishlab chiqariladigan mol va matolar, ularning xorijiy mamlakatlarda e'tibor qozongan navlari, turk qabilalari va urug'lari, ularning tili va madaniyati (yozuvlari, urf-odatlar) haqida boy daliliy ma'lumotlar keltiriladi.

“Tarixi Muborakshoh” ning yagona qo'lyozma nusxasi Angliya (Bodleyan kutubxonasi)da saklanmoqda. Uning G'uriylar va turkiy xalqlar tarixiga oid qismi (matni) mashhur ingliz sharqshunosi E. Denison Ross tomonidan 1927 - yili chop qilingan¹.

Mujmal at-tavorix va qisas. Muallifi noma'lum. Qisqa tarzda yozilgan umumiy tarixga oid asar. Qadim zamonlardan (islomiyatdan avval o'tgan Eron podsholari zamonidan) to o'g'uzlar tarafidan Sulton Sanjarning asir olinishi (1153 yili) va Nishopurning vayron etilishi-gacha bo'lgan davr ichida Eron va qisman Osiyoda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar haqida hikoya qilinadi. Asar 1153 yildan keyin yozilgan. Asarning ilmiy qimmatini shundaki, unda turkiy xalqlar, ularning kelib chiqishi haqidagi rivoyatlar, turklarning vatanlaridan biri Issiqko'l haqida boshqa manbalarda uchramaydigan ma'lumotlar keltirilgan.

“Mujmal at-tavorix” ning yagona nusxasi Parij Milliy kutubxonasida (qadimiy forsiy kitoblar fondi. Inv №-62) saqlanmoqda. Matni 1939 yili eronlik mashhur adabiyotshunos olim Malik ush-shuaro Bahor tarafidan chop etilgan.

Najmuddin Abu Xafs Nasafiy Yirik tarixchi, geograf olim, tilshunos va faqih bo'lib, to'la ismi: Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muxammad ibn Ahmad ibn Luqmon an-Nasafiy (1058-1142 yy.).

Nasafiy musulmon qonunshunosligiga oid “Manzumot an-Nasafiya fi-l-xulofiyot” (“Kelishmovchiliklar haqida an-Nasafiyning she'riy asari”), “Aqrid an-Nasafiy”

¹ A. Madraimov, G. Fuzailova. “Manbashunoslik” T, “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2008, 172-bet

(“(Islom) aqidalariga an-Nasafiy sharxi”) shariat yo‘l-yo‘riqlari va “Qur’on” sharhiga bag‘ishlangan “Al-yavoqit fi-l-mavoqit” (“Qulay vaqtlar xususida yoqutlar”), “Zal-lat al-qoriy” (“Qorilarning xatolari haqida”), shuningdek tasavvufga oid “Risolayi Najmiya” (“Najmuddin risolasi”) kabi asarlar muallifidir.

Lekin, Nasafiyning biz uchun eng muhim asari uning “Kitob ul-qand fi tarixi Samarqand” (“Samarqand tarixi haqida qand kitob”) asaridir. U “Kitob ul-qand fi ma’rifati ulamoyi Samarkand” (“Samarqand olimlarini tanish borasida qand kitob”) nomi bilan ham mashhur. Mazkur asarda O‘zbekistonning islomgacha bo‘lgan tarixi, uning arab istilochilari tomonidan bosib olinishi, Samarqandning diqqatga sazovor osori atiqalari haqida ma’lumot keltirilgan.

“Kitob ul-qand” ning arabcha asl nusxasi bizgacha etib kelmagan. Nasafiyning shogirdi Abulfazl Muhammad ibn Ab-dujalil ibn Abdumalik ibn Haydar as-Samarqandiy (XII asr) mazkur asarning kiskartirilgan forsha taxririni yaratgan. V. V. Bartoldning fikricha (Asarlar, VIII jild, M., 1973, 257-bet.) Abulfazl Muhammad as-Samarqandiy “Kitob ul-qand” ning forsha tahririga Abulfazl Muxammad as-Samarqandiy al-Idrisiyning (1015 - yili vafot etgan) “Kitob komil al-ma’rifat ar-rijol” (“Mashhur kishilarni tanish haqida mukammal kitob”) nomli asaridan ham ayrim parchalarni olib kiritgan. “Kitob ul-qand” ning XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Sayd Axmad ibn Mir Vali qalamiga mansub forsha tahriri ham bor. “Qandiyayi xurd” (“Kichik qandiya”) nomi bilan mapghur bo‘lgan bu asarning qo‘lyozma nusxalari Sankt-Peterburg, Toshkent, Dushanbe shaxarlari-da hamda chet el (Germaniya, Hindiston, Saudiya Arabistoni) kutubxonalarida saqlanmoqda. “Qandiyayi xurd” bir necha marta toshbosma usulida Samarqand (1909 y.), Toshkent va Tehronda (1955 y.) chop etilgan bir qismi V. L. Vyatkin (1869-1932 yy.) tarafidan rus tiliga tarjima qilingan va 1906 - yili nashr etilgan¹.

Sa’duddin Muhammad Avfiy XII asrning so‘nggi choragi va XIII asrning birinchi yarmida o‘tgan adib, tarjimon va tazkiranavis olim. 1172-1177 yillar orasida Buxoroda tug‘ilgan. Asosiy ma’lumotni ona shaxrida olgan va 1201 - yili Samarqand hokimi

¹ A. Madraimov, G. Fuzailova. “Manbashunoslik” T, “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2008, 170-171 betlar.

Qoraxoniylar ibn Husayn (1178-1204 yy.) saroyiga taklif etilgan. Avfiy bu yerda ko'pgina fozil kishilar, jumladan shayx Najmuddin Kubro (1221 yili Urganchda mo'g'ullar qirg'ini vaqtida halok bo'lgan) hamda shayx Majdiddin Bag'dodiy (1216 - yili xorazmshoh Alouddin Muhammadning amri bilan qatl etilgan) bilan uchrashgan.

Avfiy 1205 - yildan boshlab Movarounnahr va Xuroson bo'ylab ko'p sayohat qilgan. O'shanda u dastlab Niso, Marv, Tus, Hirot va Seistonda bo'ladi. U Nishopurda ham bo'lib, Xurosonning yetuk arabiy va forsiy shoiri bilan yaqindan tanishadi. Xullas, olim Xuroson shaharlari bo'ylab qilgan sayohati vaqtida bo'lajak tazkiras uchun ma'lumotlar to'playdi.

Avfiy mo'g'ullar istilosi arafasida Hindiston safariga o'tlanadi. G'aznaga etganda Chingizxon (1206—1227 yy.) boshliq mo'g'ul qo'shinlarining O'rta Osiyoga bostirib kiritilgan haqida xabar tarqaladi. Avfiy Xuroson va Movarounnahrdan kelgan qochoqlarga qo'shib (bular ichida olimlar va shoirlar ham ko'p edi), Hindistonga jo'natilgan va 1222 yili Uch viloyati (Panjob) ga kelib, bu yerning hokimi Nosiruddin Qabochaning (1205-1227 yy.) xizmatiga kiradi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Avfiy Gujoratga qozi qilib tayinlanadi. U 1227 - yili Dehliga ko'chib kelib Sulton Shamsuddin Eltutmishning xizmatiga kiradi va umrining oxirigacha shu yerda kun kechiradi.

Nuriddin Muhammad Avfiy Uchda turgan vaqtida o'zining “Lubob al-albob” (“Qalblar qalbi”) nomli asarini yozdi, Gujoratda esa arabiy olimi qozi Muhsin Tanuhiyning (940-994 yy.) “Al-faraj ba'd ash-shiddat” (“Ofatdan so'ngi ovunish”, 984 - yili yozilgan) nomli asarini arab tilidan forsiy tiliga tarjima qildi. “Javomi' ul-hikoyat va lavomi' ar-rivoyat” (“Hikoyalar majmuasi va rivoyatlar shu'lasini”) asarini ham o'sha yerda yozishni boshladi.

“Lubob ul-albob” (1222—1223 yillari yozilgan) antologiya bo'lib, unda O'rta Osiyo, O'zbekiston, Xuroson, Iroq Ozarbayjon, G'azna hamda G'arbiy Hindistonda X—XII asrlarda yashab ijod etgan 299 shoir va adib haqida umumiy ma'lumot beriladi. Asar Uch viloyatining hokimi Raziuddin Abubakrning topshirig'i bilan yozilgan. “Lubob ul-albob” ning forsiycha matni 1903 va 1906 yil lari E. G. Braun va Mirza Muhammadxon Qazviniiy tarafidan chop etilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan asarlar XII asr O'rta Osiyo davlatlari ijtimoiy-siyosiy hayotini tarixini o'rganishda katta ahamiyatga egadir, nafaqat XII asr balki Vatanimiz tarixining undan avvalgi davrlari tadqiq etishda ham qimmatli manbalardir. Bu manbalarni chuqur o'rganish, tadqiq etish va uni keyingi avlodlarga yetkazish biz manbashunos, tarixchilarning asosiy vazifasidir.

2 Bob Chor Rossiyasi va Sho'rolar davrida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixining o'rganilishi

2. 1. §. XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixining o'rganilishi

Chor Rossiyasida O'rta Osiyo tarixini haqiqiy ilmiy asosda o'rganish ishlari XIX asrning o'rtalaridan boshlandi desak xato bo'lmaydi. Bu qiziqish Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati bilan ham bevosita bog'liq edi. Har-bir mustamlakachi davlat biror hududni bosib olmoqchi bo'lsa avvalo o'sha hududda yashovchi xalqlarning o'tmishi, urf-odatlarini, tili, dini, madaniyatini o'rganishga harakat qiladi. XIX asr o'rtalaridan ayniqsa Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga nisbatan tajovvuskorona siyosati yanada kuchaydi. Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga yuborilgan missiyalari, harbiy ekspiditsiyalari tarkibida O'rta Osiyo tarixiga qiziquvchi tarixchilar ham bor edi. Chor Rossiyasida O'rta Osiyo tarixini tadqiq etish ishlariga Sankt-Peterburg Fanlar Akademiyasi shuningdek, Sankt-Peterburg Universiteti olimlarining hizmatlari katta bo'ldi.

Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni zabt etishi natijasida esa O'rta Osiyo xalqlari tarixini yaxshi biladigan mutaxasislarga bo'lgan ehtiyoj yanada oshadi. O'rta Osiyoning bosib olinishi chog'ida va undan keyin davrlarda ko'plab rus tarixchi-sharqshunos olimlari O'rta Osiyoga tashrif buyurib tariximizni o'rganish ishlarini jiddiy sur'atda boshlab yuborishdi. Ular faqatgina davlat manfaatiga hizmat qilish uchungina O'rta Osiyo tarixini o'rgana boshladi desak xato bo'lar edi. Ular orasida O'rta Osiyo tarixiga qiziqadigan fidoiy olimlar ham ko'p edi.

Sankt-Peterburg Fanlar Akademiyasi a'zosi bo'lgan V. V. Zernov (1858-yildan a'zo) O'rta Osiyo tarixi bo'yicha Chor Rossiyasidagi birinchi mutaxasis edi. Hali bu davrda O'rta Osiyo xalqlari tarixi G'arbiy Evropaliklarga deyarli ma'lum emas edi¹. Keyinroq V. V. Grigorev, V. V. Radlov, N. Veselovskiy, V. V.

¹ В. В. Бартольд, "Работы по истории востоковедения". Соч. т. IX. Изд. "Наука", М, 1977, С. 581

Bartold va boshqa ko'plab O'rta Osiyo tarixi bo'yicha mutaxassis olimlar yetishib chiqdi.

XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy hayotini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. XI-XII asrlar O'rta Osiyo tarixiga V. V. Grigorev, X. Vamberi, B. Dorn, V. V. Radlov kabi bir qator tadqiqotchilar katta qiziqish bilan qarab, uni ilmiy jihatdan o'rganishga o'z hissalarini qo'shishgan. Jumladan, X. Vamberi o'z asarida bir qancha arab-fors tilidagi manbalardan foydalangan holda qoraxoniylarning Buxoro shahrini zabt etishi, ularning qo'shni davlatlar ya'ni g'aznaviylar va saljuqiylar bilan o'zaro munosabatlariga oid siyosiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni qayd etgan¹.

XIX asrning ikkinchi yarmidan O'rta Osiyo tarixini tadqiq etish ishlariga katta hissa qo'shgan tarixchilardan biri V. V. Grigorev hisoblanadi. V. V. Grigorev XIX asrda Sankt-Peterburg universitetining Sharq tarixi kafedrasining dastlabki tadqiqotchilaridan edi. V. V. Grigorev 1867-yildan to umrining oxirigacha ya'ni 1881-yilgacha rus Arxeologiya jamiyatining Sharq bo'limini boshqardi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Chor Rossiyasida tarix fanlarining rivojlanishida V. V. Grigorevdek tarixchilarning xizmati katta bo'ldi. U o'z tadqiqotlari bilan O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixini ilmiy asosda o'rganganish ishlarini boshlab bergan dastlabki vakillardan hisoblanadi. Jumladan, V. V. Grigorev o'z tadqiqotida² O'rta Osiyo hududida hukmronlik qilgan Qoraxoniylar davlati tarixiga alohida qiziqqan va bu davlat tarixini qadimiy qo'lyozma manbalar asosida o'rgangan.

B. Dorn O'rta Osiyoning XI-XII asrlar davri numezmatikasiga doir tadqiqotlar olib borgan dastlabki tarixchi olimlardan hisoblanadi. Uning tadqiqotlari XI-XII asrlarda (qoraxoniylar davrida) zarb etilgan turli tanga

¹ Г. Вамбери. "История Бохары или Трансоксиани с древнейших времен до настоящего". Т. I. – СПб., 1873. – С. 226.

² В. В. Григорьев. "Караханиды в Мавераннахре по Тарихи Мунаджимбаши в османском тексте" // ТВОРАО. – СПб., 1874.

pullarning tahliliga bag'ishlangan¹. Uning izlanishlari natijasida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti haqida, jumladan, qoraxoniylar hukmdorlari, ular tomonidan olib borilgan siyosat haqida ma'lumotlarga ega bo'ldi. B. Dorn tomonidan olib borilgan numizmatik tadqiqotlar O'rta Osiyoning XI-XII asrlar davri numizmatikasining keyingi taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdi. B. Dorn boshlab bergan tadqiqotlarni keyinchalik sovet davrining mashhur numizmatlari Ye. A. Davidovich, M. N. Fyodorov, B. D. Kochnev kabilar davom ettirishdi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan O'rta Osiyo tarixini yadqiq etishga XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlari rus sharqshunosligi maktabida o'z o'rniga ega bo'lgan Baron Viktor Romanovich Rozen (1849 – 1908) ham o'z hissasini qo'shgan. U hali talabalik yillaridayoq O'rta Osiyo xalqlari tarixini qo'lyozma manbalar asosida o'rganishni boshlagan edi. V. R. Rozen birinchi darajali manbalarni o'rganish, tahlil etishga ahamiyat beradi. O'zi bir – qancha sharq tillarini o'rgangan edi. V. R. Rozen Turkistonda bo'lgan vaqtlarida O'rta Osiyo tarixi bilan bog'liq bo'lgan arab, fors va turkiy tillardagi qo'lyozma manbalarni yig'ish va ularni o'rganishga alohida e'tibor beradi. U O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixiga oid bir qator manbalarni jumladan: Izzuddin ibn al-Asir al-Jazariy (hijriy. 555-630 / milodiy 1160-1233) ning “Al-Kamil fi-t-ta'rix” (“Mukammal tarix”) , Sadriddin Abul-Xasan Ali ibn Nosir al-Husayniyning “Axbor ad-daulat as-Saljuqiyya” (“Saljuqiylar davlati to'g'risida xabarlar”) , Imodiddin Muhammad ibn Muhammad al-Isfaxoniy (hijriy 519-597-yillar / milodiy 1125-yil 20-iyun-1201-yil) ning “Nusrat al-fatra va usrat al-fitra” asarlarini o'rganadi. Bundan rashqari V. R. Rozen qoraxoniylar tomonidan Movarounnahrning zabt etilishiga masalasiga oid alohida birinchi darajali manbalar asosida tadqiqotlar olib borgan². V. R. Rozen XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari rus manbashunoslik maktabining rivojlanishiga munosib hissa qo'sha oldi³.

¹ B. Dorn. “Über die Münzen der Ilke oder ehemaligen Chane von Turkestan // Malangens Asiaticques. – Berlin, 1881.

² В. Р. Розен. “Рассказ Хилала ас-Саби о взятии Бухары Богра-ханом”, т. II. М., 1888.

³ В. Р. Розен. “Список персидским, турецко-татарским и арабским рукописям Библиотеки И. СПб. Университета”. Ч. II, арабские сочинения, - ЗВОРАО, т. III. 1889.

V. V. Radlov (1837 – 1918) ning turkiy xalqlarning tili, adabiyoti va etnik tarixini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot asarlari¹ ham XI-XII asrlar davri tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Ammo tadqiqotchining ayrim fikrlari munozaralidir. V. V. Radlovning ta'kidlashicha Qoraxoniylar davlatiga uyg'urlar asos solganlar. Bu fikr haqiqatdan uzoqroq so'ngi tadqiqotlarga ko'ra Qoraxoniylar davlatining tashkil etilishida qarluqlarning o'rni katta bo'lgan. Aslini olganda Qoraxoniylar davlati bir qancha turkiy sulolalar konfederatsiyasidan iborat edi.

XI-XII asrlar O'rta Osiyo tarixini ilk bora tadqiq etgan tarixchilardan yana biri V. P. Vasilevdir. V. P. Vasilev o'z tadqiqotlarida asosan O'rta Osiyoning sharqiy mintaqalarida sodir bo'lgan voqea-hodisalar haqida ma'lumotlar beradi. U o'z asarida² qoraxoniylar hamda qoraxitoylar o'rtasidagi munosabatlarga ham to'xtalib o'tadi.

¹ В. В. Радлов. “Опыт словаря тюркских наречий” Т. I. Ч. 2. – СПб., 1893. – С. 66; Из Сибири. – Москва: Наука, 1989.; Shu muallif: “К вопросу об уйгурах” // ЗИАН. (Приложение) – СПб., 1893. №2.

² В. П. Васильев. “История и древности восточной части Средней Азии от X до XIII века с приложением перевода китайских известий о Киданях, Джурджитах и Монголох – Татарах”.- ТВОРАО, Ч. IV, 1859.

2. 2. §. V. V. Bartold ijodida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixining o'rganilishi

Vasiliy Vladimirovich Bartold 1869-yil 3 (15) noyabrda Sankt-Peterburg shahrida ruslashgan nemis oilasida tavallud topgan. Otasi birja dalloli vazifasida faoliyat ko'rsatgan. Yosh Bartolddagi bilimga chanqoqlikni otasi ko'ra oldi va uni qo'llab-quvvatladi. Bu haqda Bartoldning o'zi quyidagicha ta'kidlagan edi: "Otam keng bilimga ega bo'lmasada ilm-fanning ahamiyatini yaxshi tushunar edi va tarixchilikka birmuncha iste'dodim borligini bilib qoldi hamda mening intilishlarimni to'la qo'llab-quvvatladi"¹. V. V. Bartold 1887-yilda 8№ Sankt-Peterburg gimnaziyasini oltin medal bilan tamomladi. Biroz o'ylab ko'rgandan so'ng Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining tarixi o'rganishga qaror qildi. 1887-yilning kuzida Sankt-Peterburg universiteti sharq tillari fakultetining arab-fors-turk-tatar tillari yo'nalishiga o'qishga topshirdi. U talabalik yillarida arab, fors hamda turkiy tillarni juda chuqur o'rgandi va ishtiyoq bilan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari tarixini o'rgandi. Sharq va O'rta Osiyo tarixi bo'yicha Pofessor N. I. Veselovskiy (1848-1918) dan saboq oldi. Sharq tarixi kafedrasida prof. N. I. Veselovskiy V. V. Bartoldga erkin ilmiy ijod qilish uchun sharoit yaratib berdi. Uning haqiqiy ilmiy rahbari ko'pqirrali mashhur olim Viktor Romanovich Rozen (1849-1908) edi. Universitetda V. V. Bartold turkshunos olimlar P. M. Melioranskiy (1868-1906) hamda akad. V. V. Radlovlar bilan yaqindan tanishdi.

V. V. Bartold universitetda o'qib yurgan kezaridayoq ilmiy-tadqiqot ishlarini boshlab yuborgan edi. 1889-yilda "O'rta Osiyoda xristianlik dini" deb nomlangan tadqiqoti uchun fakultetning kumush medali bilan taqdirlanadi. U 1891-yilda universitetni tamomlaydi va V. R. Rozen maslahati bilan 1891-1892 yillarda Ga'rbiy Evropaning bir-qator davlatlariga ilmiy safarga chiqadi. Ushbu safari chog'ida mashhur islomshunos olim Avgust Myuller (1848-1892) ma'ruzalarini tinglaydi. Bundan tashqari Strasburg universitetida taniqli arabshunos Teodor Nyoldeke (1836-1930) ma'ruzalarini tinglashga muvoffaq bo'ladi.

¹V. В. Бартольд, "Работы по истории востоковедения". Соч. т. IX. Изд. "Наука", М, 1977, С. 789.

V. V. Bartold 1906-yildan 1910-yilgacha Sankt-Peterburg universiteti sharq tillari fakultetida mudir lavozimida, 1905-yildan 1912-yilgacha Rus arxeologiya jamiyatining Sharq bo'limida mudiri lavozimida ishladi. 1913-yilda Peterburg Fanlar Akademiyasi a'zoliciga qabul qilindi. V. V. Bartold o'z faoliyati davomida Eron, Kavkaz, Arab mamlakatlari, turkiy xalqlar, mo'g'ullar tarixini o'rgandi. Lekin hammasidan ham ko'ra u o'zining o'tmishdoshlari V. V. Grigorev va N. I. Veselovskiylar boshlab bergan O'rta Osiyo tarixini o'rganishga katta e'tibor qaratdi. V. V. Bartold 1917-yildan keyingi faoliyatiga to'xtaladigan bo'lsak, u Fanlar Akademiyasi sharqshunoslar jamiyatining doimiy a'zosi bo'ldi, O'rta Osiyo Davlat Universiteti tashkil etilishi ishlarida qatnashdi, 1918-yildan sharqshunoslar uyushmasini boshqardi, so'ngra 1928-1930 yillarda turkshunoslik bo'limini boshqardi, "Eron" jurnali muharriri va Akademiyaning boshqa nashrlariga ham bosh-qosh bo'ldi. V. V. Bartold butun umrini ilm-fanga bag'ishlagan favqulotta iste'dodli inson edi. U 1930-yilda 61 yoshida vafot etdi. Uning vafoti butun dunyo tarixchi, sharqshunoslari uchun katta yo'qotish bo'ldi. O'rta Osiyo tarixini o'rganishga qo'shgan buyuk hissasi uchun undan minnaddor bo'lib qolamiz.

Akademik V. V. Bartoldning "Turkiston mo'g'ul bosqini davrida" deb nomlangan mashhur asari O'rta Osiyoning o'rta asrlar davri tarixshunosligiga oid juda muhim asardir. Asarda O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayotida sodir bo'lgan voqealarga ham keng to'xtalib o'tilgan. Bu V. V. Bartold faoliyatidagi dastlabki yirik tadqiqot edi. Asarning birinchi qismi "Matnlar" deb nomlanib arab va fors tilidagi birlamchi manbalarni o'z ichiga olgan edi. "Matnlar" 1898-yilda Sankt-Peterburg shahrida nashr etilgan. Asarning ikkinchi qismi ("Turkiston") ham Sankt-Peterburg shahrida 1900-yilda chop etilgan. Shu yilning o'zida "Turkiston" Sankt-Peterburg universiteti sharq tillari kafedrasiga Sharq tarixi magistri ilmiy darajasini olish uchun tavsiya qilinadi. Dissertatsiya himoyasi 1900-yil 19-noyabrda (2-dekabr) bo'lib o'tdi. V. V. Bartoldning ushbu tadqiqotiga professor N. I. Veselovskiy yuqori baho bergan edi va Turkiston tarixi bo'yicha birorta tadqiqotchi xali bunday darajada ish qilmaganligini ta'kidlagan edi. O'sha paytda yana bir tarixchi professor V. A. Jukovskiy ham N. I. Veselovskiy singari ishning

ilmiy ahamiyatiga yuqori baho bergan edi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati yuqori ekanligini hisobga olib Sankt-Peterburg universiteti Kengashi V. V. Bartoldga Sharq tarixi doktori ilmiy darajasini berdi.

Ingliz sharqshunosi E. Denison Ross 1928-yilda asarning inglizcha tarjimasi soʻz boshisida V. V. Bartoldning “Turkiston” asari Oʻrta Osiyo tarixini oʻrganishda yangi davrni boshlab berdi deb taʼkidlagan edi. Haqiqatan, V. V. Bartoldgacha Oʻrta Osiyoning deyarli faqat siyosiy hayoti tarixi bilan mashhur sharqshunoslar N. V. Xanikov, V. V. Grigorev, P. I. Lerx, N. I. Veselovskiy kabilar shugʻullanishgan, lekin ular alohida savollarga javob qidirishgan. V. V. Bartold tarix fanida birinchi boʻlib Oʻrta Osiyo tarixini yangicha usulda tadqiq etish ishini boshlab berdi¹.

V. V. Bartold asarining davriy chegarasi VIII-XIII asrlarni oʻz ichiga oladi. Garchi asar nomi “Turkiston moʻgʻul bosqini davrida” deb nomlansada Oʻrta Osiyoning moʻgʻullar bosqini davrigacha boʻlgan ijtimoiy-siyosiy hayoti, Oʻrta Osiyo hududidagi davlatlar siyosiy hayoti, xalqaro munosabatlar masalalari ajoyib tarzda yoritib berilgan. V. V. Bartold oʻz asarida X asrning oxiri XI asrning birinchi yarmida oʻzaro ittifoqda boʻlgan turkiy xalqlarning Movarounnahrni istilo qilishi va ularning koʻchib kelishiga eʼtibor qaratib oʻtadi. Qoraxoniylar va Saljuqiylar kabi turkiy davlatlarga asos solinishi uning fikricha, Movarounnahr, Xorazm va Xurosonning oʻrta asrlar davri voqeligini yangi bosqichga koʻtardi. Turkiy harbiy-koʻchmanchi boshqaruv tizimi, urugʻ-aymoqchilik tizimi markaziy davlat boshqaruvida ham oʻzgarishlarga olib keldi. Qoraxoniylar va Saljuqiylar davlatlarining tashkil topishi natijasida XI asrdan boshlab Oʻrta Osiyo ijtimoiy-siyosiy hayotida dehqonlarning (katta yer-mulk egalari) mavqei qanday pasayib borganligi, yangicha “iqto” tartibining ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim ahamiyatga ega boʻlib borganligi masalalarini ham birinchi marta aynan V. V. Bartold yaxshi ochib bera oldi.

¹ В.В.Бартольд. “Туркестан в эпоху монгольского нашествия”. Соч. т. I. Изд. “Восточной литературы”, М, 1963. С. 24-25.

XI asrdan O'rta Osiyoning siyosiy hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Movarounnahr va Xurosonda hokimiyatni turkiy sulolalar o'z qo'llariga olishdilar. 1005-yilda Somoniylar sulolasi to'la barham topdi. Xurosonda G'aznaviylar Movarounnahrda Qoraxoniylar davlatlari tashkil topdi. Bu kabi hodisalar V. V. Bartoldning "Turkiston mo'g'ul bosqini davrida" asarida keng bayon qilib berilgan. Shuningdek, asarda G'aznaviylar hamda Qoraxoniylar davlatlari o'rtasidagi munosabatlar, xususan, Qoraxoniylar davlati hukmdori Yusuf Qodirxon va G'aznaviylar davlati hukmdori Mahmud G'aznaviy o'rtasidagi diplomatik aloqalar, G'aznaviylar davlati bilan Xorazm Ma'muniylar davlati o'rtasidagi munosabatlar va Xorazmning Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olinishi, G'aznaviylar davlatining inqirozi, Qoraxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy hayot, davlat boshqaruvi masalalari, Qoraxoniylar bilan Saljuqiylar o'rtasidagi munosabatlar, Qoraxoniylar davlatining zaiflashuvi, XII asrning 30-yillaridan boshlangan qoraxitoylarning Movarounnahrda bosqinchilik yurushlari katta mahorat bilan yoritib berilgan.

"Turkiston mo'g'ul bosqini davrida" asarining II bobida O'rta Osiyoning XII asr tarixini batafsil bayon qilinadi, III bobida esa XII asr va XIII asr boshlarida hukmronlik qilgan Xorazmshohlar (Anushteginiylar) davlatiga bag'ishlangan. Unda Xorazmshohlar davlatining qanday qilib saljuqiylardan mustaqil bo'lgani, uning qoraxitoylar bilan olib borgan munosabatlari, hukmdorlarning Xorazm, Movarounnahr hamda Xurosonda olib borgan siyosatlarini, qoraxitoylar hukmronligiga chek qo'yilishi kabi voqea-hodisalar bayon qilinadi.

"Turkiston mo'g'ul bosqini davrida" asari ilmiy ahamiyatining kattaligi shundaki, muallif bu asarda arab, fors va turkiy tillarda o'rta asrlarda bitilgan birlamchi manbalarni bevosita tahlil qilib foydalangan. Bu borada u juda ko'plab qimmatli manbalarni o'rganib chiqdi. Lekin, shuni ham ta'kidlashimiz kerakki V. V. Bartold o'z tadqiqotiga oid barcha manbalarni ko'rib chiqqan deya olmaymiz. Chunki "Turkiston mo'g'ul bosqini davrida" asari nashrdan chiqqandan so'ng ishga oid yana boshqa manbalar ham bor ekanligi ma'lum bo'ldi.

V. V. Bartoldning yana bir muhim ishi “O’rta Osiyo tarixiga oid umumiy tadqiqotlar” deb nomlanadi. “O’rta Osiyo tarixiga oid umumiy tadqiqotlar” V. V. Bartoldning IX jildli asarlar to’plamining II jildiga kiritilgan, aniqroq qilib aytganda II jildning birinchi qismi hisoblanadi. Ushbu asarni yozishni boshlashda V. V. Bartoldga “Yettisuv tarixidan ocherklar” deb nomlangan tadqiqoti yordam berdi. Bu tadqiqot uning eng dastlabki ishlaridan bo’lib, 1898-yilda Verniy (hozirgi Olma-Ota shahri) shahrida chop etilgan edi¹. “O’rta Osiyo tarixiga oid umumiy tadqiqotlar” V. V. Bartoldning bir qancha alohida tadqiqotlarini o’z ichiga olgan bo’lib O’rta Osiyo hududida qadimdan yashab kelayotgan barcha xalqlar tarixini o’zida mujassamlashtirgan yirik asarlardan biridir. “O’rta Osiyo tarixiga oid umumiy tadqiqotlar” tarkibiga kiritilgan alohida tadqiqotlardan biri “Yettisuv tarixidan ocherklar”da XI-XII asrlar O’rta Osiyo siyosiy hayoti tarixiga oid muhim ma’lumotlar mavjud. Masalan, unda qoraxoniylarga alohida to’xtalib o’tgan. Qoraxoniylar davlatining paydo bo’lishi, ularning Movarounnahrda hukmronliklarining o’rnatilishi, qoraxoniylar va g’aznaviylar o’rtasidagi munosabatlar, qoraxoniylarning Movarounnahr va Yettisuvda olib borgan siyosati, saljuqiylar sultoni Malikshohning Movarounnahrni egallagani haqidagi ma’lumotlarni beradi. Bunda u Ibn al-Asir ma’lumotlariga ko’proq e’tibor qaratgan.

“O’rta Osiyo tarixiga oid umumiy tadqiqotlar” tarkibidan joy olgan yana bir alohida tadqiqotlardan hisoblangan “Turkiston tarixi” da Qoraxoniylar, saljuqiylar, qoraxitoylar va xorazmshohlar davlati tarixi, ularning o’zaro siyosiy aloqalariga alohida to’xtab o’tgan. Shuningdek, XI asrda Movarounnahrda siyosiy hayot yaxshi yoritib berilgan. Gaznaviylar hamda saljuqiylar o’rtasidagi munosabatlar, saljuqiylar davlatining kuch-qudratga to’lishi, Sulton Sanjar (1118-1157) davridagi siyosiy vaziyat, Sulton Sanjar hamda qoraxoniylar Mahmudning 1141-yilda Qatvon cho’lida qoraxitoylardan yengilishi, Saljuqiylar davlati qudratining pasayishi, Movarounnahrda qoraxitoylar hukmronligining o’rnatilishi, Xorazmda

¹ В.В.Бартольд. “Общие работы по истории Средней Азии”. Соч. т. II. ч. 1. Изд. “Восточной литературы”, М, 1963. С. 5.

Anushteginiylar sulolasining mustahkamlanishi, Xorazmshohlar davlati to'g'risidagi ma'lumotlar ham asardan joy olgan.

V. V. Bartold asarlar to'plami II jildining ikkinchi qismi bo'lgan "O'rta Osiyo tarixining alohida muammolari bo'yicha tadqiqotlar" O'rta Osiyo tarixining o'rta asrlar davri tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir. V. V. Bartoldning ushbu ishi O'rta Osiyo tarixiga oid turli xil muammolarni qamrab oladi. "O'rta Osiyo tarixining alohida muammolari bo'yicha tadqiqotlar" V. V. Bartold muallifligidagi xalqaro nashr bo'lgan "Islom ensiklopediyasi" ning 31 ta maqolasi¹ bilan nahoyasiga yetadi. Ushbu maqolalarning aksariyati bizni somoniy, qoraxoniy, xorazmshoh, temuriy va boshqa sulolalar hukmdorlari yoki sulolalar tarixidan xabardor qiladi. Bu maqolalarning barchasi ham bir-xilda o'z ahamiyatini saqlab qola olgan deya olmaymiz. Ularda ayniqsa Qoraxoniylar davlati tarixi bo'yicha yangi ma'lumotlarning ko'pligi ko'ramiz va bu faktik ma'lumotlarning ko'pchiligini birinchilardan bo'lib V. V. Bartold qo'lyozma manbalar taxliliga asoslanib fanga olib kira oldi. V. V. Bartoldning ushbu "Islom ensiklopediyasi" dagi maqolalari boshqa tadqiqotchilar uchun muhim ma'lumot bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolalarda XI-XII asrlarda yashab hukmronlik qilgan ayrim hukmdorlarning siyosiy faoliyati ochib beriladi. Masalan, qoraxoniy hukmdorlaridan Muhammad ibn Sulaymon Arslonxon (1102-1130) haqida ma'lumotlar keltiradi. Muhammad ibn Sulaymon Arslonxon hukmronligi davrida Movarounnahrda siyosiy hayot haqida qisman bo'lsada muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Akademik V. V. Bartoldning O'rta Osiyo tarixiga oid yana bir muhim ishi "Turkiylar; O'rta Osiyoning turkiy xalqlari tarixiga oid o'n ikki ma'ruza" deb nomlanadi. Unda O'rta Osiyoning barcha turkiy xalqlari tarixiga oid juda muhim ma'lumotlar mavjud. O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixi haqida ham ma'lumotlar mavjud. Xususan, XI-XII asrlarda hukmronlik qilgan bir-qancha turkiy sulolalar va ular o'rtasidagi munosabatlar haqida ma'lumotlar uchraydi. G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasidagi munosabatlarga to'xtalib quyidagi ma'lumotlarni keltiradi

¹ I. I. Umnyakovning ta'kidlashicha "Islom ensiklopediyasi"ga V. V. Bartoldning 246 ta maqolasi kiritilgan.

“Qoraxoniylarning G’aznaviylar bilan kurashi muvoffaqiyatsiz yakunlandi, ularning barcha yurushlari qaytarildi va ular katta yo’qotishlarga duchor bo’ldi. Amudaryoning shimolidagi bir-nechta viloyat Mahmud izmiga o’tdi. Mahmud o’zining oliy hokimiyatini butun sharq tan olishini va Qoraxoniylar ham xalifa bilan faqat uning yordamida aloqa qilishini xohlar edi. Bir vaqtning o’zida Mahmud Qoraxoniylar xoni bilan to’g’ridan-to’g’ri munosabatga kirishdi. Bu haqda tarixchi Gardizi alohida guvohlik berib o’tgan. Uning ma’lumotiga ko’ra Mahmud 1025-yili Qoshg’ar hukmdori Xorun Bug’roxonning o’g’li Yusuf Qodirxon bilan Samarqandning janubida uchrashadi”¹. Shuningdek, Yusuf Qodirxonning 1032-yilda vafot etishi haqida ham ma’lumotlar keltirib o’tadi.

“Turkiylar; O’rta Osiyoning turkiy xalqlari tarixiga oid o’n ikki ma’ruza” tayyorlashda V. V. Bartoldning eng ko’p murojaat qilgan manbasi Mahmud Qoshg’ariyning “Devoni lig’atit-turk” asaridir. Chunki turkiy xalqlar tarixini yoritishda “Devoni lig’atit-turk” asarining ahamiyati katta ekanligini V. V. Bartold o’sha vaqtlardayoq yaxshi tushunib yetgan edi.

V. V. Bartold asarlar to’plamining “Manbashunoslik bo’yicha tadqiqotlar” deb nomlangan sakkizinchi jildi O’rta Osiyoning o’rta asrlar davri manbashunosligi uchun nihoyatda qadrlidir. U 47 ta maqola va taqrizni o’z ichiga olgan. Ushbu tadqiqotlarning asosiy qismi V. V. Bartoldning O’rta Osiyo hamda Kavkazga qilgan xizmat safari hisobotlaridan iborat. V. V. Bartoldning ilmiy safarlari maqsadi va vazifasiga ko’ra turli-xil mazmunga ega. Shunday bo’lsada har-bir xizmat safari chog’ida mahalliy davlat kutubxonalari yoki ayrim shaxslarning xususiy kutubxonalarida saqlanayotgan qo’lyozmalar bilan albatta, tanishadi va uni yana tarixiy hujjatlar ham alohida qiziqtirgan. V. V. Bartold o’z ilmiy safarlari natijasida xali ma’lum bo’lmagan bir-qator birlamchi manbalarni ilm-fan olamiga namoyish etdi. Uning xisobotlari tadqiqotchilarga sharq manbalari bo’yicha juda boy materiallarni tuhfa etdi. Ko’plab sharq qo’lyozmalari

¹ В. В. Бартольд. “Тюрки: Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии”. Алматы, Изд. “Жалын”. 1998. С. 67.

tadqiqotchilari aynan V. V. Bartoldning xisobotlari natijasida musulmon O'rta Osiyosi tarixi manbalari bilan birinchi bora tanishdi.

U tarixiy manbalarni o'rganishda qo'lyozma matnini tanqidiy ko'rib chiqish, tahlil qilish kabi usullardan keng foydalandi. Bularni u sharqshunos ustozi V. R. Rozendan o'rganga edi. Uning arab, fors va turkiy tillardan yaxshi xabardorligi manbashunoslikdagi imkoniyatlarini yanada oshirdi. Filologiya sohasidagi bilimlari unga tarixiy manbalarning mazmun mohiyatini yanada chuqurroq anglashga imkon berdi.

V. V. Bartold o'zining "Manbashunoslik bo'yicha tadqiqotlar" ida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixiga oid ayrim manbalari va tarixchilari faoliyatiga ham alohida to'xab o'tadi. Masalan, Abu Said Gardiziyning "Zayn ul-axbor" ("Xabarlar ko'rki") asari xususida fikr yuritgan. Uning bu tadqiqoti 1893-1894 yillarda O'rta Osiyoga qilgan ilmiy safari natijasi edi. "Manbashunoslik bo'yicha tadqiqotlar" dan Gardiziyning "Zayn ul-axbor" asaridan V. V. Bartold tomonidan ayrim xatolari to'g'irlanib ko'chirgan arabiy matn va uning tarjimasi ham joy olgan¹.

¹ В. В. Бартольд, "Работы по источниковедению". Соч. т. VIII. Изд. "Наука", М, 1973, С. 25-62

2. 3.§. Sho'rolar davrida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixining o'rganilishi

Sho'rolar davri tarixshunosligida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixiga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Endilikda mazkur davrda Chor Rossiyasidagi umumiy tadqiqotlardan farqli mavzuga oid maxsus tadqiqotlar soni biroz ko'paydi. Mana shunday maxsus tadqiqotlar olib borgan Sho'rolar davri tadqiqotchi – olimlardan A. Yu. Yakubovskiy, S. G. Agajanov, Ye. A. Davidovich, B. D. Kochnev, M. N. Fyodorov, O' Q. Qoraev, Z. M. Bunyodov kabi tarixchilarni alohida qayd etish lozim bo'ladi. Ularning har – biri O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixiga chuqur tadqiqotlar olib borishganlar. Lekin shunday bo'lsada bu davr tarixshunosligi bir – tomonlamalik, yagona mafkuraning, ya'ni, kommunizm mafkurasining ustivorligi sezilib turadi. Tarixni materialistik nuqtai – nazardan yoritishga alohida ahamiyat berilgan. Tarixiy voqea – hodisani bayon etishda sinfiylik g'oyalari sodiq qolish, tarixda sinflar o'rtasida kurashni sunniy tarzda bo'rttirib ko'rsatishga e'tibor qaratiladi.

O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixini o'rgangan tarixchilardan yana biri turkmanistonlik Sergey Grigorevich Agajanovdir (1928-1998) . U asosan Saljuqiylar davlati tarixi ustida tadqiqotlar olib bordi. Uning olib borgan tadqiqotlari XI-XII asrlar O'rta Osiyo tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir. S.G.Agajanovning mashhur asarlaridan biri “IX-XIII asrlar O'rta Osiyoning o'g'iz va turkmanlar tarixidan ocherklar” deb nomlanadi. Ushbu monografiya aniq faktlar asosida O'rta Osiyoning rivojlangan o'rta asrlar davri tarixini o'zida aks ettirgan ko'pgina arab va fors tilida yozilgan manbalar asosida tayyorlangani bilan yanada ahamiyatlidir. Asar nafaqat siyosiy hayot tarixi, balki o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy, etnik tarixini ham o'z ichiga oladi. Asarda O'g'iz va turkman qabilalarining Saljuqiylar davlati ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni ko'rsatib berilgan va shu bilan birga Saljuqiylarning kuchayishi

ularning Movarounnahr va Xuroson olib borgan siyosatlari, ularning G'aznaviylar, Qoraxoniylar davlatlari bilan siyosiy munosabatlari ochib berilgan¹.

S.G.Agajanovning yana bir mashhur asari “XI-XII asrlarda Saljuqiylar va Turkmaniston” deb nomlanadi. Ushbu asarning ikkinchi bobi Saljuqiylar davlatining siyosiy tuzilishi deb nomlanib unda davlatining XI-XII asrlardagi siyosiy hayoti haqida batafsil ma'lumotlar beriladi². Bu esa bizga XI-XII asrlardagi O'rta Osiyodagi siyosiy hayotni yanada yaxshiroq o'rganishimizda yordam beradi. Asarning mazkur bobida sulton hokimiyatidan tortib to vazirlar faoliyati, davlat organlarining faoliyati, saljuqiylar boshqaruvida muhim ahamiyatga ega bo'lgan beshta devonlik, ma'muriy boshqaruv, mahalliy boshqaruv, sud organlari haqida juda muhim ma'lumotlar keltiriladi. Shuni ham alohida qayd etib o'tish lozimki sovet davri tarixshunosligida S.G.Agajanovning tadqiqotlarigacha Sharqiy Saljuqiylar davlati tarixiga oid tadqiqotlar hali u darajada chuqur emas edi. Bundan tashqari ko'p xollarda sovet davri tarixshunosligida Saljuqiylar davlatining siyosiy tomonlari ko'proq o'rganilgan bo'lib davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga unchalik darajada katta e'tibor qaratilmas edi. S.G.Agajanov esa sovet davri tarixshunosligida birinchilardan bo'lib ushbu muammolar ustida keng ko'lamda tadqiqot ishlarini olib borgan tarixchi olimlardan hisoblanadi.

S.G.Agajanovning asari ham sovet davri tarixshunosligiga xos bo'lgan sinfiy kurash masalalarini ham o'z ichiga oladi. Yagona mafkuraning hukmronligi sovet tarixshunosligiga o'zining salbiy ta'sini ko'rsatmay qolmadi. Misol uchun S.G.Agajanovning “XI-XII asrlarda Saljuqiylar va Turkmaniston” asarining oxirgi uchinchi bobida sinfiy kurash masalalariga alohida e'tibor qaratib o'tiladi. Shunday bo'lsada S.G.Agajanovning tadqiqotlari hozirgi kunda ham o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan.

¹ С.Г.Агаджанов. “Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии в IX-XIII вв”. Ашхабад, Изд. “БЫЛЫМ”, 1969

² С.Г.Агаджанов. “Сельджукиды и Туркмения в XI-XII вв.”. Ашхабад, Изд. “БЫЛЫМ”. 1973.

S.G.Agajanov Saljuqiylar davlati tarixiga oid yana ko'plab tadqiqotlar olib borgan¹. U o'z ishlarining asosiy qismini Saljuqiylar davlati tarixiga oid muammolarni echishga qaratdi.

Sovet davri tarixshunosligida numezmatik tadqiqotlarning ham o'рни alohidadir. Ayniqsa, XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixini o'rganishda numezmatik manbalarning ahamiyati katta. Sovet davrining mashhur numezmatiklaridan biri Yelena Abramovna Davidovich O'rta Osiyo tarixini numezmatik manbalar asosida tadqiq etdi².

Sovet davri numezmatiklaridan yana biri M. N. Fyodorovdir. M. N. Fyodorov ham huddi Ye. A. Davidovich kabi qoraxoniylar davri O'rta Osiyo tarixini numezmatik tadqiqotlar orqali o'rtgandi³. U numezmatik manbalar asosida Qoraxoniylar davlati siyosiy hayotini, qoraxoniylar va saljuqiylar o'rtasidagi munosabatlar, qoraxoniylar davlati hukmdorlari olib borgan siyosati kabi masalalarni tadqiq etdi.

XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixini o'rgangan tarixchilardan Boris Dmitryevich Kochnyev (1940-2002) olib borgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. B.D.Kochnyev O'rta Osiyoning XI-XII asrlar ijtimoiy-siyosiy hayoti tarixini numezmatik manbalar asosida mohirona yoritib bera olgan tarixchi olimlardan hisoblanadi. B.D.Kochnyev deyarli butun faoliyatini O'rta Osiyo

¹ С.Г.Агаджанов. “Восстание огузов 1156 г. и падение Восточно-Сельджукского государства”. Ашхабад, 1956.; shu muallif: “К вопросу о торговой и дипломатической практике огузо-туркменских племен X-XI вв”. ИАН ТССР, № 3. “Новый источник по истории Средней Азии”. ИАН ТССР, № 5. Ашхабад, 1971. shu muallif: “Новые материалы о происхождении туркмен”. ИАН ТССР, СОН, № 2. shu muallif: “Государство Сельджукидов и Средняя Азия в IX-XII вв”. М., 1991.

² Давидович Е.А. “Заметки по нумизматике Средней Азии”. Ч.1 // Материальная культура Таджикистана”. Вып. 2. Душанбе. 1971. “Денежное хозяйство Средней Азии после монгольского завоевания и реформа Мас'уд-бека (XIII в.)”. М. 1972. “Монеты Ферганы как источник для характеристики института феодальных пожалований за службу в Средней Азии X в”. // ППВ-1969. М. 1972. “Вопросы хронологии и генеалогии Караханидов второй половины XII в”. // Средняя Азия в древности и средневековье (история и культура)”. М. 1977.

³ Федоров М.Н. “Политическая история Караханидов в конце X — начале XI в”. // НЭ. Т. X. М. 1972. “Политическая история Караханидов в конце первой и во второй четверти XI в”. // НЭ. Т. XI. М. 1974. “Очерк истории Восточных Караханидов конца X — начала XIII в. По нумизматическим данным”// Киргизия при Караханидах. Фрунзе. 1983.

hududida hukmronlik qilgan Qoraxoniylar davlati numizmatikasini tadqiq etishga bag'ishladi. U tangalarni tadqiq etish orqali Qoraxoniylar davlatida hukmronlik qilgan hukmdorlarning shajarasini tuzib chiqa oldi. Bu esa Qoraxoniylar davlati tarixining eng muammoli jihati hisoblangan hukmdorlar shajarasi masalasini oydinlashtirdi. B.D.Kochneyev o'z tadqiqotlari bilan nafaqat numizmatika fani rivojini bir pog'onaga ko'tardi shuningdek, O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixiga qiziquvchi tarixshunoslar uchun ham juda muhim bo'lgan tadqiqotlar qoldirdi¹.

XI-XII asrlar O'rta Osiyo tarixini o'rganishga katta hissa qo'shganlardan qirg'izistonlik mashhur tarixchi Qoraev Omurqul Qoraevich (1930-2002) hisoblanadi. O.Q.Qoraev o'z tadqiqotlarining asosiy qismini O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan Qoraxoniylar davlati tarixini o'rganishga bag'ishladi. O.Q.Qoraev 1970-yillarning oxirlaridan boshlab Qoraxoniylar davlati tarixini o'rganishga jiddiy e'tibor qarata boshladi. U Qoraxoniylar davlati tarixiga oid tadqiqoti davomida mavzuga oid asosiy manbalarni va shuningdek mavzuga aloqasi bo'lgan turli-tuman manbalarni puxtalik bilan o'rgandi. 1983-yilda O.Qoraev o'zining "Qoraxoniylar xoqonligi tarixi. (X-XIII asr boshlari)" nomli fundamental tadqiqotini nihoyasiga yetkazdi. O.Qoraevning ushbu monografiyasi sovet davri tarixshunosligi, sharqshunosligi hamda turkshunosligida Qoraxoniylar tarixiga oid dastlabki umumlashtirilgan tadqiqot edi. Oradan bir yil o'tib Uz SSR FA Abu Rayxon Beruniy nomli sharqshunoslik institutida Qoraxoniylar davlati tarixiga oid doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

¹ Б.Д.Кочнев. "К истории денежного обращения в Средней Азии вXI-XII вв". // ИМКУ. Вып. 12. Ташкент. С.170-175. 1975. "Находки монет конца X — начала XIII вв. на Афрасиабе"// Там же. С. 69-76. 1975. "Заметки по средневековой нумизматике Средней Азии". Часть1 (Саманиды, Караханиды, Джаниды) // ИМКУ. Вып. 14. Ташкент. С. 120-131. 1978. "Нумизматические находки на территории Узбекистана в1969-1972 гг". // ОНУ. №3. С. 65-68. 1978.(совместно с Т.С. Ерназаровой, Э.В. Ртвеладзе, М.Н. Фёдоровым). "Заметки по средневековой нумизматике Средней Азии". Часть2 (Караханиды) // ИМКУ.Вып. 15. Ташкент. С. 120-138. 1979. "Шаш (Чач) и Илак при Караханидах" (по нумизматическим данным) // Древняя и средневековая культура Чача. Ташкент. С. 110-166. 1979. "Новые данные по генеалогии и хронологии Караханидов"// III Всесоюзная тюркологическая конференция. Литература и история. ТД. Ташкент. С. 147-149. 1980.

O.Qoraev o'zining ko'pgina tadqiqotlari¹ orqali XI-XII asrlar O'rta Osiyo tarixini o'rganish ishlariga katta hissa qo'shdi. Uning "Qoraxoniylar xoqonligi tarixi. (X-XIII asr boshlari)" nomli monografiyasida ko'lami keng bo'lgan savollar muhokama qilingan. Muallif tadqiqot manbashunosligining eng asosiy muammolarini o'rganishga batafsil to'xtalib o'tgan. Qoraxoniylar tarixini tadqiq etish ishlari taxminan XIX asrning 30-yillariga borib taqaladi. Ular Qoraxoniylar davriga oid dastlabki numezmatik tadqiqotlar edi. Qoraxoniylar tarixi muammolarini keng miqyosda tadqiq etish ishlari faqat XX asrdagina amalga oshirildi. O.Qoraevning o'zi ta'kidlaganidek, aynan V.V.Bartold o'z o'tmishdoshlari tadqiqotlarini tahlil qilib, taqqoslab O'rta Osiyoda qoraxoniylar va kidanlar davri tarixiga oid ko'p ishlar qildi. V.V.Bartold tadqiqotlari orqali bizni qoraxoniylar tarixidan xabardor qildi hamda qoraxoniylar siyosiy hayotining eng muhim jihatlariga e'tibor berdi. Kekin u iqtisodiy hayotni, shaharlar hayotini kam darajada o'rgandi. O.Qoraev esa ushbu muammolar ustida tadqiqot olib bordi. Shuningdek O.Qoraev tadqiqotlari davomida Qoraxoniylar davlatining kelib chiqishi, davlat hukmdorlarining unvonlari, davlatning siyosiy tuzilishi, Qoraxoniylar davlatining ikki qismga yani sharqiy qoraxoniylar hamda g'arbiy qoraxoniylarga bo'linib ketishi, kidanlar (qoraxitoylar) va xorazmshohlar o'rtasidagi kurash, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, xo'jalik va madaniy hayoti muammolariga katta e'tibor qaratgan.

O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixini o'rgangan sovet davri tarixchilaridan yana biri ozarbayjonlik Ziyo Musaevich Bunyodov (1921-1997) dir. Z. Bunyodov o'z tadqiqotlarining bir qismini Anushtegin-Xorazmshohlar davlati (1097-1231) tarixiga bag'ishladi². Anushtegin-Xorazmshohlar davlati tarixi Z. Bunyodovga qadar sovet davri tarixshunosligida akademik V. V. Bartold tomonidan chuqur o'rganilgan edi. Ammo V. V. Bartold tadqiqotlaridan so'ng ham Anushtegin-Xorazmshohlar davlati tarixga oid bir qator qo'lyozma manbalarining

¹ Караев О.К. "История Караханидского каганата (X-нач.XIII вв)". – Ф.,1983.; shu muallif: "Арабские и персидские источники IX-XII вв.о киргизах и Киргизии". – Ф.,1968.

² Бунятов З.М. "Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов".(1097-1231) . М., 1986.

mavjud ekaligigi ma'lum bo'ldi. Z. Bunyodov o'sha manbalar ustida ham tadqiqot olib bordi. Uning eng mashhur asarlaridan biri "Anushtegin-Xorazmshohlar davlati (1097-1221)" deb nomlanadi. Muallif ushbu asarda ko'proq Xorazmshohlar davlatining siyosiy hayoti tarixiga to'xtalib o'tadi. Bundan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini ham o'rgangan. Asarda Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi, taxt uchun kurashlar, Xorazmshohlar davlatining harbiy tuzilishi, Xorazmshohlar davlatidagi yuqori mansab egalari shuningdek Xorazmshohlar davlatining Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari tomonidan bosib olinishi kabi voqea-hodisalar bayon etib berilgan. Z. Bunyodov o'zining mazkur asarida Xorazmshohlar davlati tarixiga oid manbalarining tahlili, yoki bo'lmasa manbalarni o'zaro taqqoslash kaba masalalarga ko'p e'tibor qaratmaydi. Xatto, bu haqda muallifning o'zi ham ta'kidlab o'tgan. Ammo, Z. Bunyodov Xorazmshohlar davlati tarixi manbashunosligi ustida katta tadqiqot ishlarini olib bordi. U XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixiga oid Sadriddin al-Husayniyning "Axbor ad-Davla as-Saljuqiya" asarini rus tiliga tarjima qilgan va unga sharhlar tayyorlab nash ettirgan¹. U yana turkiy sulolalardan qoraxoniylar tarixiga ham qiziqib ko'rgan².

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki Z. Bunyodov Xorazmshohlar davlati tarixiga oid qanchalik tadqiqotlar olib borgan bo'lmasin, lekin uning barcha jihatlarini to'liqligicha yoritib berilgan deya olmaymiz.

XX asrning 50-yillarida sovet tarixshunosligida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixi bo'yicha bir qancha ishlar qilindi. Bularni keng miqyosda olib borilgan tadqiqotlar deya olmaymiz albatta. Bunday tadqiqotlarda ko'pincha eng muhim siyosiy voqealar o'z aksini topgan. O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixini qisman o'z ichiga olgan asarlardan biri "O'zbekiston xalqlari tarixi" dir. Bu asar 1950-yilda nashrdan chiqqan bo'lib, uni sovet davrining mashhur

¹ Садриддин Али ал-Хусайни. Ахбар ад-даулат ас-селджукийя (зубдат ат-таварих) фи ахбор ал-умара вал мулук ас-селджукийя). Издание текста, перевод, введение, примечания и приложения З.М. Буниятова. М., 1980.

² З.М. Буниятов. "Гарс ан-Ни'ма ас-Саби и Камал ад-дин ибн Фувати об истории Караханидов"// ППВ-1974. М. 1981.

tarixchilari K. B. Trever, A. Yu. Yakubovskiy hamda M. E. Voronsevlarning hammualifligida yozilgan. Asar ikki qismdan iborat. Uning birinchi qismi O'zbekiston tarixining qadimgi davridan to XVI asr boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Asarning oltinchi bobida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar davri tarixi bayon qilib beriladi¹. Xususan, Movarounnahrda qoraxoniylar hukmronligining o'rnatilishi, qoraxoniylar hamda g'aznaviylar o'rtasidagi munosabatlar, Xorazm va Mahmud G'aznaviy munosabatlari, Xorazmning Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olinishi, Xorazmshohlar saltanatining inqirozi kabi masalalar bayon etiladi.

¹ К. Б. Тревер, А. Ю. Якубовский, М. Э. Воронцев. "История народов Узбекистана". (С древнейших времен до начала XVI века). Т. Изд. АН УзССР. 1950. С. 267-333

3 Bob Mustaqil O'zbekistonda va Xorijiy mamlakatlarida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixining o'rganilishi

3. 1. §. Mustaqil O'zbekistonda O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixining o'rganilishi

Vatanimiz istiqloлга erishganidan so'ng tariximizni yangicha yondoshuv bilan, xolis yoritish ishlariga katta e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda yurtimiz tarixini o'rganishni istagan har qanday tadqiqotchi uchun keng imkoniyatlar eshigi ochilgan desak xato bo'lmaydi. Hukumatimiz va shaxsan prezidentimiz I. A. Karimov yurtimiz tarixini chuqur o'rganish zarur ekanligini ta'kidlab muhim bo'lgan qaror va farmonlar chiqargani bunga dalil bo'la oladi. Prezidentimiz I. A. Karimov 1998-yilda bir guruh tarixchi olimlar bilan bo'lgan suhbatida yurtimiz o'tmishini tadqiq etish naqadar muhim ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan edi.

Mustaqil O'zbekistonda O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixi kam o'rganilgan mavzulardan hisoblanadi. Qilingan ishlarning asosiy qismi darsliklar, o'quv uslubiy qo'llanmalardan iborat bo'lib umumiy O'zbekiston tarixining bir davri sifatida berib ketilgan. Ko'pincha o'zidan oldingi tadqiqotchilarning fikrlari yana takrorladi. Mavzuga oid alohida ilmiy ishlar barmoq bilan sanarli darajada kam qilingan. Mavzu bo'yicha Sho'rolar davrida ko'pgina tadqiqotlar amalga oshirilgan edi lekin ularda o'sha davr mafkurasi, tarixni yoritishda eskicha yondoshuvlar yaqqol namoyon bo'ladi. Bugungi kunda esa O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixini yangicha dunyoqarash bilan, yangicha uslubiy yondoshuvlar bilan yoritish muhim ahamiyatga egadir.

Mustaqil O'zbekistonda O'rta Osiyoning XI-XII asrlar o'rganganlardan K. Sh. Shoniyozov, A. A. Asqarov, B. Ahmedov, A. S. Sagdullaev, A. Muhammadjonov, R. Murtazaeva kabi tarixchilarni tilga olishimiz mumkin. Lekin ushbu tarixchilarning ilmiy tadqiqot mavzulari bevosita O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixi bo'lmagan.

Mustaqillik yillarida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixini o'rgangan olimlardan Karim Shoniyozovdir. O'zbek xalqining etnik shakllanish jarayoni yoritish K. Shoniyozovning asosiy tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Ammo K. Shoniyozov o'z tadqiqotlarida¹ O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixi keng yoritgani alohida diqqatga sazovordir. K. Shoniyozov O'rta Osiyo hududida XI-XII asrlarda hukmronlik qilgan bir qator davlatlar jumladan, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar hamda Qoraxitoylar davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ko'plab manbalar va adabiyotlar asosida yoritib bergan. XI asr boshlaridan g'aznaviylar va saljuqiylar o'rtasida boshlangan siyosiy mojrolarning asl sabablari, bu kurashning oxir-oqibatda qanday yakunlangani, saljuqiylar siyosiy mavqeining mustahkamlanib Xuroson va Movarounnahr hududlarini birin-ketin zabt etishlari, shuningdek qoraxoniylarning g'aznaviylar va saljuqiylar hamda qoraxitoylar bilan bo'lgan munosabatlari, qoraxitoylarning qanday qilib Movarounnahr hududlarini qaramga aylantirishi masalalarini mohirlik bilan yoritib bergan.

O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixi bilan qiziqqan yana bir tadqiqotchilardan Nosir Muhammaddir. Nosir Muhammad o'zining "Turon davlatlari va hukmdorlari"² deb nomlangan asarida O'rta Osiyo shu jumladan, O'zbekiston hududida faoliyat yuritgan davlatlar tarixiga to'xtab o'tadi. Nosir Muhammadning "Turon davlatlari va hukmdorlari" asari mustaqillik yillarida ikki marta nashrdan chiqdi. So'ngi ikkinchi nashri tuzatish hamda to'ldirishlar bilan 2013 – yilda amalga oshirilgan. Nosir Muhammad asarining bir qismi O'rta Osiyo hududida XI-XII asrlar faoliyat ko'rsatgan bir – qator davlatlar shu jumladan, Qoraxoniylar davlati, G'aznaviylar davlati, Saljuqiylar davlati, Xorazmiylar davlati, Qoraxitoylar davlatlari tarixiga alohida – alohida to'xtaladi. Muallifning ta'kidlashicha ushbu asarning yozilishiga asosiy turtki bo'lgan bo'lgan hodisa bu K. E. Bosvortning "Musulmon sulolalari" asari hisoblanadi. Muallif asarni yozishda K. E. Bosvortning "Musulmon sulolalari" kitobi namunasidan

¹ K. Sh. Shoniyozov. "Qarluq davlati va qarluqlar". Toshkent. "Sharq". 1999.; shu muallif, "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni". Toshkent. "Sharq". 2001.

² N. Muhammad. "Turon davlatlari va hukmdorlari". Toshkent. "Dizayn-press". 2013.

foydalanadi, ya'ni, asarning strukturaviy tuzilishi K. E. Bosvort kitobidan farq qilmaydi. Nosir Muhammadning “Turon davlatlari va hukmdorlari” kitobida huddi K. E. Bosvortning “Musulmon sulolalari” kitobidagi kabi davlatlar tarixi bayon etilganidan so'ng davlatda hukmronlik qilgan hukmdorlarning xronologik tarzda shajarasi berib boriladi. Umuman olganda muallifning ushbu asari O'rta Osiyoning qadimgi davrdan to XX asrgacha bo'lgan davrda mavjud bo'lgan deyarli barcha davlatlar tarixi shu jumladan, O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixiga oid qisqacha ta'rifdan iboratdir. Muallif bu borada XI-XII asrlar O'rta Osiyo tarixshunosligida katta o'zgarishlarni amalgam oshirgan deya olmaymiz. Nosir Muhammadning “Turon davlatlari va hukmdorlari” asari tanqidiy, tahliliy jihatdan ko'rib chiqishni taqozo etadi.

So'ngi vaqtlarda O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixi bo'yicha qilingan muhim ishlardan biri Mahmudov Behzod Hamidovich tomonidan himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasidir. Dissertatsiya mavzusi “Qoraxoniylar davlatchilik tizimining xususiyatlari” deb nomlanib akademik A. R. Muhammadjonov ilmiy rahbarligida O'zbekiston Milliy Universitetida 2010-yilda himoya qilingan. Ushbu tadqiqot ishi mustaqillik yillarida Qoraxoniylar davlati tarixi bo'yicha qilingan dastlabki yirik ilmiy tadqiqot ekanligi bilan muhim ahamiyatga egadir. Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki B. H. Mahmudov o'z tadqiqotida bir-qator yangicha fikrlarni ilgari surgan. B. H. Mahmudov tadqiqotlari davomida V. V. Bartold, O. Pritsak, O. Qoraev kabi yirik tarixchilarning ayrim fikrlariga qo'shilmaydi. Masalan Qoraxoniylar davlatiga asos solgan qabilalarni aniqlash, davlatning tashkil topish davrini aniqlash va boshqalar. U fikrlari ko'proq K. Sh. Shoniyozov xulosalariga yaqinroq. B. H. Mahmudov o'zining qator tadqiqotlarida¹ O'rta

¹ B. H. Mahmudov. “Qoraxoniylar davlatining tashkil topgan sanasi bilan bog'liq muammolar” // GulDU axborotnomasi. – Guliston, 2004. - № 3-4. – B. 72-76.; shu muallif, “Qoraxoniylar davlati” // O'zMil Ensik. – T. “Davlat ilmiy nashriyoti”. 2005. – 11-jild. – 84-85.; shu muallif, “Qoraxoniylar davlatchilik tarixiga oid ayrim mulohazalar” // GulDU axborotnomasi. – Guliston, 2007. - № 3-4. - B. 77-80.; shu muallif, “Tavg'achxon atamasi xususida” // Moziydan sado. – Toshkent, 2008. - № 2. –B. 39-41.; shu muallif, “Qoraxoniylar davlati boshqaruv tizimi haqida”. // O'zbekistonda Ijtimoiy Fanlar. – Toshkent, 2009. - №1. – B. 67-74.

Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan qoraxoniylar sulolasi tarixi bilan bog'liq bo'lgan muhim xulosalarini berib kelmoqda.

B. H. Mahmudov o'zi tomonidan o'rganilgan mavzuning o'rganilganlik darajasini to'rt guruhga bo'ladi:

1. XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrda olib borilgan tadqiqotlar.
2. Sho'rolar hukmronligi davrida olib borilgan tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarida olib borilgan hamda davom ettirilayotgan izlanishlar, tadqiqotlar va chop etilgan adabiyotlar.
4. Mavzuga oid xorijda amalga oshirilgan tadqiqotlar¹.

¹ B. H. Mahmudov. "Qoraxoniylar davlatchilik tizimining xususiyatlari". Avtoreferat. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyadan. O'z MU. Toshkent. 2010. 4-bet.

3. 2. §. Xorijiy mamlakatlarida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixnavisligi

Xorijiy mamlakatlar tarixshunosligida O'rta Osiyo hududida hukmronlik qilgan XI-XII asr davlatlari tarixiga qiziqish asosan XIX asrning o'rtalaridan boshlangan. Mazkur davrdan boshlab XI-XII asrlarda O'rta Osiyo hududida hukmronlik qilgan G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar davlatlari tarixini o'rganish ishlari boshlab yuborildi. Bu borada dastlabki davrda G'arbiy Yevropalik tarixchilar yetakchilik qilishdilar. G'arbiy Yevropada sharqshunoslik, manbashunoslik hamda turkshunoslik fanlarining rivojlana boshlashi ham O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan XI-XII asrlar davlatlari tarixining o'rganilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixida muhim rol o'ynagan davlatlardan bo'lgan Saljuqiylar davlati tarixiga qiziqish XIX asrning o'rtalaridan anchagina kuchaydi. Saljuqiylar davlati tarixiga oid dastlabki maxsus tadqiqot ishlari fransuz tarixchisi Sh. Defremer tomonidan amalga oshirilgan edi. Sh. Defremer saljuqiylar sulolasining beshinchi sultoni Berkyoriq (1094-1105) hukmronligi davri haqida tadqiqotlar olib borgan. Sh. Defremer tadqiqotlari 1853-yilda Parij shahrida nashr etilgan edi.

XIX asrning oxirlarida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixi bilan qiziqqan tadqiqotchilardan biri Stenli Len Pul hisoblanadi. Stenli Len-Pul o'z davrining mashhur sharqshunos va numezmatigi bo'lib musulmon sharq mamlakatlarida hukmronlik qilgan ko'plab sulolalar tarixiga alohida e'tibor qaratgan. Stenli Len-Pul o'z asarida¹ musulmon mamlakatlarida hukmronlik qilgan deyarli barcha sulolalar tarixini qisqacha bo'lsada xronologik ketma-ketlikda keltirib o'tadi. Stenli Len-Pul asarida XI-XII asrlarda O'rta Osiyo hududida hukmronlik qilgan bir-qator sulolalar tarixiga oid munim ma'lumotlar uchraydi.

¹ Стенли Лен-Пуль “Мусульманские династии: Хронологические и генеологические таблицы с историческими введениями”. Перевод с английского с примечаниями и дополнениями В. В. Бартольда. Москва. Изд. “Восточная литература”. 2004.

Jumladan, asar Stenli Len-Pul asarining oltinchi, yettinchi hamda sakkizinchi boblari XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy hayoti haqidagi faktik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Biz uchun muhim jihati G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar hamda Xorazmshohlar davlatlari tarixiga alohida-alohida to'xtalib o'tilganidir. Bu borada u biq-qator numezmatik va birinchi darajali qo'lyozma manbalardan foydalanadi. Stenli Len-Pul asari dastlab 1894-yilda nash etilgan edi. Keyinchalik ya'ni 1899-yilda esa V. V. Bartold tomonidan ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilinib, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib chop ettirilgan edi.

O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixiga oid tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchilardan biri ingliz tarixchisi A. Lempton edi. A. Lempton o'z asarlarlarida¹ Saljuqiylar davlati tarixi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini, shuningdek davlat boshqaruvi, qo'shni davlatlar bilan bo'lgan munosabatlarni bayon qilib beradi. Bundan tashqari A. Lempton saljuqiy hukmdorlaridan Sulton Sanjar davri tarixiga ham alohida qiziqib ko'rgan, xususan Sulton Sanjar bilan qoraxoniylar, qoraxitoylar, g'uzlar o'rtasidagi munosabatlar yaxshi yoritib bergan. A. Lempton o'z tadqiqotlarida birinchi darajali qo'lyozma manbalardan keng foydalangan.

Mashhur fransuz sharqshunosi K. Kaen XX asr o'rtalarida XI-XII asrlarda Saljuqiylar davlati tarkibiga kirgan hududlarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tarixini chuqur o'rgangan. K. Kaenning asosiy e'tibori saljuqiylar davrida O'rta Osiyo, Eron hamda Old va Kichik Osiyo tarixini o'rganishga qaratilgan edi. K. Kaen o'z tadqiqotlarida² shuningdek Saljuqiylar davlatining harbiy yurishlari, Saljuqiylar davlatining davlat boshqaruvi, ularning XI-XII asrlarda O'rta Osiyo hududida olib borgan siyosatiga alohida e'tibor bilan qaragan.

O. Pritsak XX asr o'rtalarida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borgan evropalik tarixchi olimlardan hisoblanadi. O. Pritsak o'zining tadqiqotlarida Qoraxoniylar davlati tarixini yoritishga asosiy

¹ A. Lempton. The Administration of Sanjar's Empire as Illustrated in the "Atabat al-Kataba". // BSOAS, London, 1957.

² C. Cahen. "The historiography of the Saljuqid period. HME. London, 1962.

e'tibor qaratadi. U o'z asarida¹ Qoraxoniylar davlatiga asos solinishi, qoraxoniylarning Movarounnahrni zabt etishi, qoraxoniylarning g'aznaviylar bilan bo'lgan munosabatlari, qoraxoniylarning davlat boshqaruvi kabi masalalarga to'xtalib o'tgan.

Evropalik tarixshunoslardan yana biri Tamara Rays XX asrning ikkinchi yarmida o'z ilmiy tadqiqotlarining bir qismini O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixini o'rganishga qaratgan. T. Raysning "Saljuqiylar Kichik Osiyoda" nomli asarida² Saljuqiylar davlatiga asos solinishidan to ularning Kichik Osiyoni zabt etishlarigacha bo'lgan tarixi bayon etib beriladi. T. Rays asarida saljuqiylarning O'rta Osiyo hududida olib borgan siyosati haqida muhim ma'lumotlar bor. Jumladan, somoniylar va g'aznaviylar o'rtasidagi munosabatlar, g'aznaviylar va saljuqiylar o'rtasidagi munosabatlar, saljuqiylar hamda qoraxoniylar o'rtasidagi munosabatlar, mashhur Dandanakon jangi haqidagi malumotlar, saljuqiylar davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti kabi masalalar ham o'rganilgan. Muallif voqea-hodisalarni ixcham va ravon qilib yetkazib bera olgan.

Ingliz sharqshunosi K. E. Bosvort XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Sharq mamlakatlarida hukmronlik qilgan sulolalar tarixini yoritib bergan. Manchester Universiteti professori K. E. Bosvort o'zining "Musulmon sulolalari" asarida XIX asrning oxirlarida Stenli Len-Pul boshlab bergan Sharq mamlakatlari musulmon sulolalari tarixini xronologik ketma-ketlikda yoritib berish ishini davom ettiradi. Biz uchun muhim tomoni K. E. Bosvort o'z tadqiqotida³ O'rta Osiyo hududida XI-XII asrlarda hukmronlik qilgan turkiy sulolalar tarixini o'rgangan. U o'rta asrlar sharq qo'lyozma manbalaridan dastlabki tadqiqotlaridan birini 1967-yilda "Islamic Surveys" nomi ostida Edinburg universitetida nashr ettiradi. K. E. Bosvort o'z tadqiqotlarida numezmatik manbalardan keng foydalangan bu esa uning ishining qiymatini yanada oshiradi. Chunki ayrim sulolalarning jumladan,

¹ O.Pritsak .“Karachanidi sene streifragen // Oreins. 1950. Vol. 3. - №2.; Shu muallif; Die Karachaniden // Der Islam. Berlin, 1953.

² T. T. Rice. "The Seljuks in Asia Manor". London. 1961.

³ К. Э. Босворт. "Мусульманские династии". Москва. Изд. "Наука". 1971.

XI-XII asrlarda O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan qoraxoniylar sulolasining hukmdorlar shajarasi juda murakkab masalalardan hisoblanadi K. E. Bosvort o'zining kichik va puxta tadqiqoti orqali ushbu masalaga to'xtab o'tadi. Bunday masalalarni hal etishda numezmatik manbalarning o'rni kattadir.

XX asrning ikkinchi yarmidan Tamara Talbot Rays O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixiga qiziqib ko'rgan tarixchilardan hisoblanadi. Tamara Rays o'zining "Saljuqiylar. Kichik Osiyoni zabt etgan ko'chmanchilar" nomli asarida Saljuqiylar davlati tarixi bilan bir qatorda O'rta Osiyo hududida hukmronlik qilgan G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davlatlari tarixiga ham to'xtalib o'tadi.

O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixini o'rganish ishlariga turkiyalik tarixchilar ham salmoqli hissa qo'shishgan. Ularga Erdogan Merkil, Ozavdin Abdulkerim, Umer Soner Hunkan, M. A. Koymen, I. Kafesoglu, O. Turan, A. Sevim, H. N. Orkun va boshqalarni qo'shishimiz mumkin.

Ularning ichida Umer Soner Hunkanning so'ngi yillarda chop etilgan "Turk xoqonligi" deb nomlangan monografik asari¹ alohida ahamiyatga egadir. Muallif asarni yozishda shu davr tarixiga daxldor deyarli barcha manba va adabiyotlardan foydalangan. Mazkur asar Qoraxoniylar davlati tarixiga bag'ishlanib, unda davlatning tashkil topishidan to uning tanazzuliga qadar bo'lgan davrning ijtimoiy-siyosiy voqealari bayon etib berilgan.

O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixini Erdogan Merkil yaxshi yoritib bera olgan. E. Merkil o'z tadqiqotlarida² G'aznaviylar hamda Saljuqiylar davlatlarining o'zaro munosabatlari ko'proq yoritgan. Shuningdek Qoraxoniylar davlati tarixiga ham to'xtalib o'tadi.

Turkiyalik tarixchilar ayniqsa saljuqiylar mavzusiga katta e'tibor bilan qaraganlar va tadqiq etganlar. Saljuqiylar davlati tarixini o'rganishga ayniqsa I.

¹ Omer Soner Hunkan. "Turk hakanligi". Istanbul, 2007.

² E. Mercil. "Gazneviler Devleti tarihi". Ankara, 2007.; shu muallif: "Sultan Gazneli Mahmud". Ankara, 1987.

Kafesoglu¹, M. A. Koymen² hamda O. Turan³ kabi tarixchilar katta hissa qo'shganlar. Turkiyalik tadqiqotchilar Saljuqiylar davlati siyosiy hayoti, davlat boshqaruvi muammolari, ijtimoiy-iqtisodiy masalalariga ahamiyat berganlar. Sobiq Ittifoq davridan so'ng Rossiyada O'rta Osiyo tarixini tadqiq etish ishlari davom etdi. Bu borada mashhur tarixchi-numezmatik olim Boris Dmitryevich Kochnyev (1940-2002) ning tadqiqotlari⁴ alohida ahamiyatga ega. B. Kochnyev o'z tadqiqotlarini sovet davrida boshlagan edi va u o'zi boshlagan tadqiqot ishlarini sovet davridan keyingi davrlarda ya'ni to umrining oxirlarigacha (2002-yilgacha) davom ettirdi. B. D. Kochnyev O'rta Osiyoda XI-XII asrlarda hukmronlik qilgan Qoraxoniylar davlati tarixini numezmatik manbalar asosida juda yaxshi o'rgangan tarixchilardan hisoblanadi. B. D. Kochnyev o'z ustozlari Ye. A. Davidovich bilan qoraxoniylar davri numezmatikasini puxta tadqiq etdi.

O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixini o'rgangan rossiyalik tarixchilardan yana biri V. M. Zaparojes bo'lib, u asosan Saljuqiylar davlati tarixini o'rgangan. V. M. Zaparojes o'zining eng so'ngi tadqiqotlaridan birida ya'ni "Saljuqiylar" deb nomlangan asarida⁵ Saljuqiylar davlati hukmdorlarining O'rta Osiyoda olib borgan siyosiy faoliyati haqida ham ma'lumotlar keltiradi. V. M. Zaparojes o'z asarida o'g'uz qabilalari tarixidan to Kichik Osiyodagi Saljuqiylar davlatigacha bo'lgan

¹ I. Kafesoglu. "Sultan Melikshah devrinde Buyuk Seljuklu imparatorlugu". Istanbul, 1953.; shu muallif: Harezmsahlilar Devleti tarihi (485-617 / 1092-1229). Ankara,1956.

² M. A. Koymen. Buyuk Seljuklu imparatorlugu tarihi". 1. Kuruluj devri. Ankara, 2000.; shu muallif: "Buyuk Seljuklu imparatorlugu tarihi. III. Alp Arslan ve zamai. Ankara, 2001.; shu muallif: "Tugrulbey". Ankara, 1986.

³ O. Turan. "Seljuklular ve islamiyet". Istanbul, 1998.

⁴ Б.Д.Кочнев. Нумизматическая история Караханидского каганата (991-1209 гг.). Часть I. М. «София», 2006. Караханид Али-тегин в Бухаре// Бухара и мировая культура. Вып. 3. Ч. 1. ТД. Бухара. 1995 г. С. 93-95. shu muallif: О содержании серебра в караханидских дирхемах конца X — нач. XII вв. // Проблемы реставрации культурного наследия народов Средней Азии и технологии древних и средневековых ремесленных производств. ТД. Самарканд. 1995 г. С. 56-58. shu muallif: Караханидские фельсы Кеша// Согд в системе культурных связей Центральной Азии.ТД. Самарканд. 1999 г.С. 80-81. shu muallif: Мавераннахр накануне создания Западного Караханидского каганата (в свете нумизматики) // ИМКУ. Вып. 31. Самарканд. 2000 г. С. 178-203. уана о'зи; Караханидский каганат// Очерки по истории государственности Узбекистана. Ташкент. 2001 г. С. 65-84. shu muallif: Конечный этап нумизматической истории Караханида Мухаммада б. Насра// НЦА. Вып V. Ташкент. 2001 г. С. 63-75. . shu muallif: О датировке монет Караханида Кадыр-Тафгачакана Сулаймана// Культурное наследие Средней Азии. Ташкент.2003 г. С.135-140.

⁵ В. М. Запорожец. "Сельджуки". Москва. "Воениздат". 2011. С. 295.

tarixni bayon etib bergan. Jumladan, saljuqiylarning O'rta Osiyo siyosiy hayotiga tobora ko'proq aralasha borish jarayonlari, ularning G'aznaviylar davlati bilan bo'lgan munosabatlari, Saljuqiylar davlatining vujudga kelishi, qudratli davlat birlashmasiga aylanib qo'shni hududlarni istilo etishlari, saljuqiylarning buyuk sultonlaridan Alp Arslon (1063-1072) , sulton Malikshoh (1072-1092) , sulton Sanjar (1118-1157) , 1092-1118 yillarda Saljuqiylar davlatining ichki siyosiy hayoti haqida batafsil tadqiqotlar olib borgan.

O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixini tadqiq etgan tarixchilardan yana biri R. Raxmonaliyev hisoblanadi. R. Raxmonaliyevning mashhur asarlaridan biri "Turkiylar saltanati. Buyuk sivilizatsiya" deb nomlanadi. R. Raxmonaliyev mazkur asarida insoniyat sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan deyarli barcha turkiy sulolalar tarixini umumiy yoritib bergan. Asarda O'rta O'siyo hududida hukmronlik qilgan bir qator qudratli turkiy davlatlar tarixi ham alohida yoritilib o'tilgan. Jumladan, Qoraxoniylar davlati, G'aznaviylar davlati, Saljuqiylar davlati, Xorazmshohlar davlati tarixi, ushbu davlatlarning XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy hayotida tutgan o'rni, ularning o'zaro munosabatlari qulay va ixcham tarzda bayon etib berilgan.

Qo'shni respublikalarda ham O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixiga oid tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, mustaqil Tojikiston respublikasida bir-qator tarixchi-olimlar mazkur davr tarixi bo'yicha nomzodlik yoxud doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. Mana shunday tarixchilardan biri Najotova Nigina Baratovna bo'lib, u o'zining bir-qator tadqiqotlarida¹ XI-XII asrlarda O'rta Osiyo hududida sodir bo'lgan voqealarni yoritib bergan. N. B. Najotova 2011-yil Dushanbe shahrida, Tojikiston Milliy Universitetida "XI-XII asrlarda G'aznaviylar va Saljuqiylar o'zaro a'loqalari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. N. B. Najotova G'aznaviylar

¹ Н. Б. Нажотова. Происхождение Сельджукидов //Известия Академии наук Республики Таджикистан. Отделение общественных наук. –Душанбе: Дониш, 2009. -№ 1. -С. 36-40.; shu muallif: Политические взаимоотношения Газневидов и Сельджукидов //Вестник Таджикского национального университета (научный журнал). -Душанбе: Сино, 2011. -№ 2 (66). -С.136-141.

va Saljuqiylar munosabati tarixi yoritilgan tadqiqot ishlarini quyidagi guruhlarga bo'lgan:

1. Sovet sharqshunoslari V. V. Bartold, A. Yu. Yakubovskiy, A. E. Bertels, V. Gordlevskiy, S. G. Agajanov, I. P. Petrushevskiy, L. Zaxoder, V. M. Masson, G. A. Pugachenkova, E. V. Rtveladze, S. P. Tolstov kabilar tomonidan amalga oshirilgan ishlar. Ular orasida muallif ayniqsa V. V. Bartold tadqiqotiga alohida urg'u beradi.

2. Mahalliy Tojikistonlik tarixchi-olimlarning tadqiqotlari. Muallif birinchi navbatda B. G'ofurov tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tadi. Lekin B. G'ofurov tadqiqotlarida obyektivlikdan biroz chekinish holatlarini ko'rish mumkin bo'lganidan muallif B. G'ofurov ishiga katta baho berganligi dissertasiyaning ilmiy saviyasini biroz bo'lsada kamaytiradi. Shuningdek, N. Nig'matov, D. Dovudova, T. Xo'janiyozovlarning tadqiqotlarini ham ta'kidlab o'tadi.

3. Eron va afg'on tadqiqotchilarining ishlari. Ularga S. Nafisiy, G. Insofpura, A. Parviza, G. Yusufiy, A. Bahromiy, A. Zarrinkuba, A. Sulaymona, M. Gubara, A. Pajvoka, G. Jaloliy, X. Xaliliy, A. Kuxzoda, A. Habibiy kabilarning tadqiqotlarini kiritgan.

4. G'arb mamlakatlari olimlari K. E. Bosvort, E. Braun, R. V. Bulliet, M. Valdman, A. Laust, E. K. Lembton, A. Mets kabilarning olib borgan tadqiqotlari¹.

Tojikistonlik tadqiqotchilardan yana biri Ali Mahmudiy A'lamiy ham XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy hayotini o'rgangan tarixchilardan hisoblanadi. Ali Mahmudiy A'lamiy 2011-yilda Dushanbe shahrida o'zining "Eron va Xurosonning XI-XII asrlardagi o'zaro aloqalari" deb nomlangan tarixshunoslik mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi². Qiziq tomoni shundaki Ali Mahmudiy A'lamiyning "Eron va Xurosonning XI-XII asrlardagi o'zaro aloqalari" nomli nomzodlik dissertatsiyasi bilan yuqorida ta'kidlab o'tilgan N. B. Najotovaning "XI-XII asrlarda G'aznaviylar va Saljuqiylar o'zaro aloqalari" mavzusidagi

¹ Н. Б. Нажотова. "Газневидо-селджукидские отношения в XI-XII вв". Автореферат. диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. ТАДЖ.Н У. Душанбе. 2011. С. 7-10.

² А. М. Аълабий. "Взаимоотношения Ирана и Хорасана в XI-XII вв". Автореферат. диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Душанбе. 2011.

nomzodlik dissertatsiyasi umumiy olganda ayni bir-xildagi voqae-hodisalarni o'z ichiga oladi. Sababi N. B. Najotova dissertatsiyasida ham Ali Mahmudiy A'lamiyning dissertatsiyasida asosan G'aznaviylar va Saljuqiylar davlatlarining o'zaro aloqalari yoritib beriladi. Lekin shunday bo'lsada Ali Mahmudiy A'lamiyning tadqiqotida mavzuni yoritishning o'ziga xos uslublaridan foydalanilgan.

Tojikistonlik tarixchilardan yana biri S. K. Mullajonov XI asr O'rta Osiyo siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan G'aznaviylar davlati tarixi ustida tadqiqot ishlarini olib borgan. S. K. Mullajonov G'aznaviylar davlati tarixini manbashunoslik tadqiqotlari asosida olib bormoqda. U o'z tadqiqotlarida¹ G'aznaviylar davlati tarixiga oid birinchi darajali manbalarni tadqiq etgan.

¹ С. К. Мулладжонов. “Тарихи Маъсуди Абул Фазл Байхаки о государственных традициях таджиков” // Материалы международной научной конференции студентов. Ашхабат. 2001.; shu muallif: “Тарихи Маъсуди” Абулфазла Байхаки как источник по изучению государственного устройство Газнавидов. (Автореферат. дис. кан.ист. наук). Душанбе.2000.

Xulosa

XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixini ilmiy asosda tadqiq etish ishlarini XIX asrning ikkinchi yarmidan Chor Rossiyasi tarixchilari boshlab berdi. Bunga Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati bevosita ta'sir ko'rsatdi. Rossiya imperiyasi uchun o'zi bosib olmoqchi bo'lgan O'rta Osiyoning tarixini bilish muhim edi. XIX asrning ikkinchi yarmida rus sharqshunoslik maktabining vujudga kelishi XI-XII asrlar O'rta Osiyo siyosiy hayoti tarixini ilmiy asosda o'rganila boshlashida muhim rol o'ynadi.

XIX asrning oxirlari XX asr boshlarida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixini ko'plab manbalar asosida eng ko'p darajada tadqiq etgan tarixchi V. V. Bartold hisoblanadi. V. V. Bartold O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixiga oid bir qator birinchi darajali manbalarni dastlabki bora ilmiy asosda o'rgangan olimlardan bo'ldi. Bunda V. V. Bartold tarixiy manbalarni o'zaro taqqoslash, analiz va sintez qilish, manba matnini tanqiday tahlil qilish kabi yangi tadqiqot usullaridan keng foydalandi. Abulfazl al-Bayhaqiyning "Tarixi Mas'udiy", Abu Nasr Muhammad ibn Abduljabbor al-Utbiyning "Tarixi Yaminiy", Izzuddin Abu-l-Xasan Ali ibn Muhammad Ibn al-Asirning "Al-Kamil fi-t-ta'rix" kabi birinchi darajali manbalarni aynan V. V. Bartoldgina dastlabki bora chuqur tahlil asosida tadqiq etgan tarixchidir.

O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixi Sho'rolar davrida eng ko'p darajada o'rganilgan. Aytish mumkinki XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Chor Rossiyasida qo'lga kiritilgan dastlabki sharqshunoslik, manbashunoslik hamda tarixshunoslik tadqiqotlari qo'lga kiritgan ilmiy yutuqlar Sho'rolar davri tarixshunoslari uchun mustahkam poydevor vazifasini bajarib berdi. Ushbu davrda mavzuga oid maxsus tadqiqotlar olib borilgan. Lekin masalaning boshqa bir tomoni ham mavjud ya'ni Sho'rolar davri tarixshunosligi Chor Rossiyasi davri tarixshunosligidan keskin farqlanadi. Sho'rolar davri tarixshunosligida tarixiy voqea-hodisani materialistik nuqtai-nazardan yoritish masalasi ustivor ahamiyat kasb etadi. Tarixni sinfiylak qarashlar bilan yozish,

tarixiy tadqiqotlar jarayonida markscha-lenincha g'oyalarga sodiq qolish kabi masalalarga alohida e'tibor bilan qaralgan.

Sho'rolar davrida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixiga oid tadqiqotlarning eng yaxshilari asosan Sobiq Ittifoq tarkibiga kiruvchi O'rta Osiyo respublikalari tarixchilari tomonidan olib borildi. Bunga misol qilib biz turkmanistonlik tarixchi S.G.Agajanov, qirg'izistonlik tarixchi O.Q.Qoraev kabilarni aytishimiz mumkin. Ushbu tarixchilar O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixi bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Lekin ular O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixini o'z davlatlari tarixidan kelib chiqqan holda yoritishga harakat qilganlar. Masalan, S.G.Agajanov O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixini yoritishda o'g'uz va turkman qabilalari tarixi, Saljuqiylar davlati tarixiga katta e'tibor qaratadi. O'g'uz va turkmanlarning O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixida tutgan o'rnini alohida ko'rsatishga harakat qiladi. O.Q.Qoraev esa Qoraxoniylar davlatiga katta urg'u beradi. O.Q.Qoraevning asosiy tadqiqot mavzusi ham aynan Qoraxoniylar davlati tarixi hisoblanadi. O.Q.Qoraevning ayrim fikrlari masalan, Qoraxoniylar davlatining tashlik topish davri, Qoraxoniylar davlatiga qaysi qabilalar asos solganligi kabi masalalarga yondoshuvi eng so'ngi tadqiqotlarga unchalik muvofiq kelmaydi. S.G.Agajanov hamda O.Q.Qoraevlarning olib borgan tadqiqotlari XX asrning 60-80 yillarida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixi bo'yicha olib borilgan eng samarali tadqiqotlardan hisoblanadi. Har ikkala tarixchi ham mazkur davr tarixi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishgan. Ularning ilmiy tadqiqotlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixiga oid Sho'rolar davri tarixshunosligida numezmatik tadqiqotlarning ham ahamiyati katta. Sho'rolar davrida O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixiga oid tadqiqotlar olib borgan bir qator istedadli numezmatlar yetishib chiqdi. Ye. A. Davidovich, B. D. Kochnyev va M. N. Fyodorov kabi tadqiqotchilarni mana shunday olimlar qatoriga qo'shamiz. Ularning har birlari O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ushbu numezmat olimlarning barchasi Qoraxoniylar davlati numezmatikasiga alohida to'xtab o'tganlar. Ular olib borgan

tadqiqotlar V. V. Bartold ta'kidlaganidek turkiy sulolalar orasida shajara jihatidan eng murakkabi bo'lgan qoraxoniylar sulolasi hukmdorlari shajarasining anchagina oydinlashishiga imkon yaratdi. Yuqoridagi tadqiqotchilar nafaqat bevosita numezmatik tadqiqotlar balki O'rta Osiyo hududida XI-XII asrlarda sodir bo'lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni ham tadqiq etganlar.

XX asrning 60-yillarida mavzuga oid eng yirik tadqiqotlarni Turkmaniston SSRdan S.G.Agajanov olib bordi. S.G.Agajanov O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixi bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy hayoti ustida ham batafsil tadqiqotlar olib borgan dastlabki O'rta Osiyolik tarixchilardan biri edi. Ammo, S.G.Agajanov asosiy e'tiborni o'g'uz, turkman qabilalari hamda Saljuqiylar davlati tarixiga qaratadi. Ya'ni, O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixini Turkmanistonning tarixidan kelib chiqqan holda yoritishga harakat qilgan.

70-yillardan boshlab qirg'izistonlik tarixchi O.Q.Qoraevning O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixi bo'yicha qilgan ishlari diqqatga sazovor. O.Q.Qoraev asosiy e'tiborni Qoraxoniylar davlati tarixiga qaratadi.

Ozarbayjonlik tarixchi Z. M. Bunyodov tadqiqotlarida esa asosiy urg'u Saljuqiylar hamda Xorazmshohlar masalasiga qaratiladi. Lekin, Z. M. Bunyodov tadqiqotlarni S.G.Agajanov yoki O.Q.Qoraev olib borgan tadqiqotlarga qaraganda ilmiy saviyasi biroz kam darajada. Chunki, Z. M. Bunyodov tadqiqotlarida biroz bo'lsada filologik yondoshuvni ko'rishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixiga oid tadqiqotlar juda kam olib borildi va bu muammo hozirgi kungacha davom etmoqda. O'zbekiston tarixchilari O'rta Osiyoning XI-XII asrlar tarixi bilan bog'liq muammolarga duch kelganlarida ko'p hollarda Sho'rolar davrida amalga oshirilgan tadqiqot ishlaridan foydalanishmoqda. Ushbu davr tarixini qo'lyozma manbalar asosida tadqiq etish ishlari deyarli amalga oshirilmayapti. Faqat, so'ngi vaqtlarda B. H. Mahmudov tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. B. H. Mahmudovning Qoraxoniylar davlati bo'yicha yoqlagan nomzodlik dissertatsiyasi mustaqillik yillarida qilingan eng dastlabki ishlardan bo'ldi.

Xorijiy mamlakatlarda O'rta Osiyoning XI-XII asrlar siyosiy hayoti tarixiga qiziqish asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. XIX asrda O'rta Osiyoning o'rta asrlar tarixi jumladan, XI-XII asrlar tarixi bilan Stenli Len Pul hisoblanadi. Uning musulmon sulolari tarixiga bag'ishlangan kitobi hatto, Chor Rossiyasi tarixchilarini ham qiziqtirgan. Stenli Len Pulning musulmon sulolalari bo'yicha qilgan ishlarini XX asr o'rtalarida K. E. Bosvort davom ettirdi. K. E. Bosvortning Musulmon sulolalari asari Stenli Len Pul asaridan mazmun va shakl jihatidan katta farq qilmaydi.

O'rta Osiyo respublikalari orasida so'ngi vaqtlarda mavzuga oid eng ko'p tadqiqotlarni Tojikistonlik tarixchilar amalga oshirmoqdalar. Ali Mahmudiy A'lamiy, N. B. Najotova, S. K. Mullajonov kabilarning ilmiy ishlarini misol qilib olishimiz mumkin. Ammo, ushbu tadqiqotchilarning ishlarini tahliliy jihatdan ko'rib chiqish lozim. Chunki, Tojikistonda so'ngi vaqtlarda qilinayotgan tadqiqotlarda tarixni sun'iy tarzda bo'rttirib ko'rsatish holatlari uchrab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Prezident asarlari:

1. I. A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. Sharq. 1998.
2. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. T. 2008.

Hukumat qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 315-son, 27.07.1998-yil.

Kitoblar va turkum nashrlar

1. С.Г.Агаджанов. “Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии в IX-XIII вв”. Ашхабад, Изд. “ЫЛЫМ”, 1969.
2. С.Г.Агаджанов “Сельджукиды и Туркмения в XI-XII вв.”. Ашхабад, Изд. “ЫЛЫМ”. 1973.
3. С.Г.Агаджанов “Восстание огузов 1156 г. и падение Восточно-Сельджукского государства”. Ашхабад, 1956.
4. С.Г.Агаджанов “Основные проблемы истории огузских племен Средней Азии”. ФИТН. Л., 1967.
5. В. Ahmedov “O'zbekiston tarixi manbalari” T, “O'qituvchi”, 2001
6. В.В.Бартольд. “Туркестан в эпоху монгольского нашествия”. Соч. т. I. Изд. “Восточной литературы”, М, 1963.
7. В. В. Бартольд, “Работы по истории востоковедения”. Соч. т. IX. Изд. “Наука”, М, 1977.
8. В.В.Бартольд. “Общие работы по истории Средней Азии”. Соч. т. II. ч. 1. Изд. “Восточной литературы”, М, 1963.
9. В. В. Бартольд. “Тюрки; Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии”. Алматы, Изд. “Жалын”. 1998.
10. В. В. Бартольд, “Работы по источниковедению”. Соч. т. VIII. Изд. “Наука”, М, 1973.
11. К. Э. Босворт. “Мусулманские династии”. Москва. Изд. “Наука”. 1971.

12. Буниятов З.М. “Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов”.(1097-1231) . М. 1986.
13. Буниятов З.М.Садр-ад-дин Али ал-Хусайни. Ахбар ад-даулат ас-селджукиййа (зубдат ат-таварих) фи ахбор ал-умара ва-л мулук ас-селджукиййа). Издание текста, перевод, введение, примечания и приложения З.М. Буниятова. М., 1980.
14. В. П. Васильев. “История и древности восточной части Средней Азии от X до XIII века с приложением перевода китайских известий о Киданях, Джурджитах и Монголах – Татарах”.- ТВОРАО, Ч. IV, 1859.
15. В. М. Запорожец. “Сельджуки”. Москва. “Воениздат”. 2011
16. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих. (Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г.Булгакова, дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камолиддин), Ташкент-Цюрих, 2005.
17. Караев О.К. “История Караханидского каганата (X-нач.XIII вв)”. – Ф.,1983.
18. Караев О.К.“Арабские и персидские источники IX-XII вв.о киргизах и Киргизии”. – Ф.,1968.
19. М. А. Koymen. Buyuk Seljuklu imparatorlugu tarihi”. 1. Kuruluj devri. Ankara,2000.
20. М. А. Koymen. “Buyuk Seljuklu imparatorlugu tarihi. III. Alp Arslan ve zamaı. Ankara, 2001.
21. C. Cahen. “The historiography of the Saljuqid period. HME. London, 1962.
22. C. Cahen. “Le Malik-nameh et l’histoire des origines Seldjucides”. Oriens, vol. II. 1949.
23. A. Lambton. “Landlord and Peasant in Persia”. London, 1953.
24. A. Lambton. “Islamic Society in Persia. London. 1954.
25. С. Лен-Пуль “Мусулманские династии: Хронологические и генеологические таблицы с историческими введениями”. Перевод с

- англиского с примечаниями и дополнениями В. В. Бартольда. Москва. Изд. “Восточная литература”. 2004.
26. A. Madraimov, G. Fuzailova. “Manbashunoslik” T, “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2008.
27. E. Mercil. “Gazneviler Devleti tarihi”. Ankara, 2007.
28. E. Mercil. “Seljuklularda hukumdarlik alametleri”. Ankara, 2007.
29. E. Mercil. “Sultan Gazneli Mahmud”. Ankara, 1987.
30. O. Turan. “Seljuklular ve islamiyet”. Istanbul, 1998.
31. В. Р. Розен. “Список персидским, турецко-татарским и арабским рукописям Библиотеки И. СПб. Университета”. Ч. II, арабские сочинения, - ЗВОРАО, т. III. 1889.
32. В. В. Радлов. “Опыт словаря тюркских наречий” Т. I. Ч. 2. – СПб., 1893.
33. O.Pritsak . Die Karachaniden . Berlin, 1953.
34. T. T. Rice. “The Seljuks in Asia Manor”. London. 1961.
35. К. Б. Тревер, А. Ю. Якубовский, М. Э. Воронцев. “История народов Узбекистана”. (С древнейших времен до начала XVI века). Т. Изд. АН УзССР. 1950
36. K. Sh. Shoniyozov. “Qarluq davlati va qarluqlar”. Toshkent. “Sharq”. 1999.
37. K. Sh. Shoniyozov. “O’zbek xalqining shakllanish jarayoni”. Toshkent. “Sharq”. 2001.
38. Omer Soner Hunkan. “Turk hakanligi”. Istambul, 2007.

Dissertatsiya avtoreferatlari

1. С. К. Мулладжонов. “Тарихи Маъсуди” Абулфазла Байхаки как источник по изучению государственного устройство Газнавидов. (Автореферат. дис. кан.ист. наук). Душанбе.2000.
2. Н. Б. Нажотова. “Газневидо-селджукидские отношения в XI-XII вв”. Автореферат. диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. ТАДЖ.Н У. Душанбе. 2011.

3. А. М. Аълабий. “Взаимоотношения Ирана и Хорасана в XI-XII вв”. Автореферат. диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Душанбе. 2011.
4. В. Н. Mahmudov. “Qoraxoniylar davlatchilik tizimining xususiyatlari”. Avtoreferat. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyadan. O’zMU. Toshkent. 2010.
5. М.Салихов. “Префиксальные глаголы в История Бейхаки”. Автореферат, кандидат филологических наук, СП Гос.Унив. Санкт-Петербург, 1993.

Mavzuga oid ilmiy maqolalar:

1. Давидович Е.А.“Канибадамский клад караханидских монет”// С А. №1.1961..
2. Давидович Е.А.“Клад саганианских монет второй четверти XI в. как исторический источник”// ППВ-1968. М. 1970.
3. Давидович Е.А.“Заметки по нумизматике Средней Азии”. Ч.1 // Материальная культура Таджикистана”. Вып. 2. Душанбе. 1971.
4. “К истории денежного обращения в Средней Азии вXI-XII вв”. // ИМКУ. Вып. 12. Ташкент. С.170-175. 1975.
5. Б.Д.Кочнев.“Заметки по средневековой нумизматике Средней Азии”. Часть1 (Саманиды, Караханиды, Джаниды) // ИМКУ. Вып. 14. Ташкент. С. 120-131. 1978.
6. Б.Д.Кочнев.“Заметки по средневековой нумизматике Средней Азии”. Часть2 (Караханиды) // ИМКУ.Вып. 15. Ташкент. С. 120-138. 1979.
7. Б.Д.Кочнев.“Шаш (Чач) и Илак при Караханидах” (по нумизматическим данным) // Древняя и средневековая культура Чача. Ташкент. С. 110-166. 1979.
8. Федоров М.Н “К вопросу об исторических судьбах дихканов при Караханидах”// СА. 1975. №1.

18. Федоров М.Н “Междоусобная война 1012-1016 гг. в государстве Караханидов”// Страницы истории и материальной культуры Киргизстана. Фрунзе. 1975.
19. Федоров М.Н “Новые данные к истории Караханидского государства последней четверти XI в”. // История и археология Средней Азии. Ашхабад. 1978.
20. Буниятов З.М.“Гарс ан-Ни'ма ас-Саби и Камал ад-дин ибн Фувати об истории Караханидов”// ППВ-1974. М. 1981.
21. Н. Б. Нажотова. Отражение истории Газневидов и Сельджукидов в произведении «История Мас'уда» //Вестник Таджикского национального университета (научный журнал). – Душанбе: Сино, 2009. -№ 3 (51). – С.10-13.
22. Н. Б. Нажотова. Происхождение Сельджукидов //Известия Академии наук Республики Таджикистан. Отделение общественных наук. –Душанбе: Дониш, 2009. -№ 1. -С. 36-40.
23. Н. Б. Нажотова. Политические взаимоотношения Газневидов и Сельджукидов //Вестник Таджикского национального университета (научный журнал). -Душанбе: Сино, 2011. -№ 2 (66). -С.136-141.
24. С. К. Мулладжонов. “Абул Фазл Байхаки о государственных традициях таджиков” // Вестник Национального университета (история и право),- Душанбе, 2003. №5.
25. С. К. Мулладжонов Дивани везират при государстве Газневидов // Материалы первой научной конференции молодых ученых Таджикистана. – Душанбе, 1999. 4.1.
26. С. К. Мулладжонов “Тарихи Маъсуди Абул Фазл Байхаки о государственных традициях таджиков” // Материалы международной научной конференции студентов. Ашхабат. 2001.;
27. С. К. Мулладжонов “Тарихи Маъсуди” Абулфазла Байхаки как источник по изучению государственного устройство Газнавидов. (Автореферат. дис. кан.ист. наук). Душанбе.2000.

28. B. H. Mahmudov “Qoraxoniylar davlatining tashkil topgan sanasi bilan bog’liq muammolar” // GulDU axborotnomasi. – Guliston, 2004. - № 3-4. – B. 72-73.
29. B. H. Mahmudov “Qoraxoniylar davlati” // O’zMil Ensk. – T. “Davlat ilmiy nashriyoti”.2005. – 11-jild. – 84-85.
30. B. H. Mahmudov “Qoraxoniylar davlatchilik tarixiga oid ayrim mulohazalar” // GulDU axborotnomasi. –Guliston, 2007. -№ 3-4.- B. 77-80.
31. B. H. Mahmudov “Tavg’achxon atamasi xususida” // Moziydan sado. – Toshkent, 2008. - № 2. –B. 39-41.
32. B. H. Mahmudov “Qoraxoniylar davlati boshqaruv tizimi haqida”. // O’zbekistonda Ijtimoiy Fanlar. – Toshkent, 2009. - №1. – B. 67-74.

Internet saytlari

1. [www. Wikipedia.org](http://www.Wikipedia.org)
2. [http// www. vostlit. Info/Texts/](http://www.vostlit. Info/Texts/)
3. www.mirknig.com
4. [http//dicakademic.ru/](http://dicakademic.ru/)
5. [http//www.drevlit.ru/texts](http://www.drevlit.ru/texts)
6. www.e-bookspdf.org
7. www.textroad.com